

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

Abdullayeva Mohidilxon Muminovna

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Nazmu-l-javohir” asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari**

Ilmiy rahbar:  
Dots. v.b. D.Yusupova

Toshkent – 2014

## **MUNDARIJA**

|                                                                                               |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                            | <b>3.</b>  |
| <b>I BOB. “NAZM UL-JAVOHIR” ASARINING YARATILISH TARIXI VA TARKIBIY TUZILISHI.....</b>        | <b>6.</b>  |
| 1.1. Muqaddimada asarning yaratilishi va soʻz qudrati bilan bogʻliq fikrlar.....              | 6.         |
| 1.2. Asarning kompozitsion qurilishi.....                                                     | 18.        |
| <b>II BOB. “NAZM UL-JAVOHIR” ASARI HAZRAT ALI HIKMATLARINING NAZMIY TALQINI SIFATIDA.....</b> | <b>31.</b> |
| 2.1. Hikmatlarning gʻoyaviy xususiyati, mavzu koʻlami.....                                    | 31.        |
| 2.2. “Nazm ul-javohir” ruboiylari badiiyati.....                                              | 48.        |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                            | <b>61.</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....</b>                                                | <b>65.</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Istiqlol sharofati bilan boy ma'naviy merosimiz hamda asrlar davomida e'zozlab kelingan milliy an'ana va qadryatlarimiz qayta tiklandi. Bu esa ko'plab sohalarda bir qator islohotlarning yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Ayni shu fikrlarni Navoiyshunosligimizga ham tatbiq qiladigan bo'lsak, mustaqillikdan keyin Hazrat Alisher Navoiyning "Siroj ul-muslimin", "Arbain" "Munojot" kabi bir qator diniy-tasavvufiy asarlari chop etildi, qolaversa uning bir muncha asarlari qaytadan talqin va tahrir qilindi. Zero, Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz"<sup>1</sup>.

Demak, ona tilimiz taraqqiyotida, qolaversa bugungi kun avlodi tarbiyasida Hazrat Alisher Navoiyning asarlari muhim manba vazifasini o'tar ekan, biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, hali bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar ham kam emas. Ayni shu muammolar sirasiga biz, Hazrat Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari (1485) kompozitsion qurilishini va unda berilgan so'z qudrati bilan bog'liq bo'lgan fikrlarni o'rganish, qolaversa, "Nazm ul-javohir" ruboiylari mavzular ko'lami va g'oyaviy xususiyatlarini hamda ularning badiiy nafosatini ta'min etgan omillarni aniqlash kabilarni kiritamizki, bularning barchasi ishimizning dolzarbligini belgilovchi xususiyatlar hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2009.-47-48-б.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hazrat Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari 1968-yilda Navoiy asarlari XV jildligining XV-jildida nashr etilgan bo'lib, uni matinsunos Porso Shamsiyev nashrga tayyorlagan<sup>2</sup>. Biroq unda asarning muqaddima qismi va manzuma ruboiylarining g'oyaviy asosi bo'lgan Hazrat Ali hikmatlari tushirib qoldirilgan. Buning sababi shundaki, mazkur xayrli ishlar amalga oshirilgan davrda “Nazm ul-javohir” asarining g'oyaviy asosi Hazrat Alining hikmatli so'zlariga borib taqalishiga urg'u berib bo'lmas edi.

M. Rashidova “Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqoti” nomli nomzodlik ishida “Nazm ul-javohir” asarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi.

Ma'rifat Rajabova o'zining ““Nazm ul-javohir” asarining manbalari va badiiyati” deb nomlangan nomzodlik disertatsiyasida asarning g'oyaviy asosi bo'lgan Hazrat Ali hikmatlarining bir necha qo'lyozma nusxalarini tadqiq qildi va uning badiiyatiga qisqacha to'xtaldi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Yuqorida ta'kidlaganimizdek, “Nazm ul-javohir” asarining badiyatini birinchilardan bo'lib, Ma'rifat Rajabova o'rgandi. Biroq unda asarning yaratilishi bilan bog'liq fikrlar hamda asarning g'oyaviy asosi bo'lgan Hazrat Ali hikmatlari qo'lyozma manbalari keng miqyosda tadqiq qilingan bo'lib, uning badiyatiga qisman to'xtanilgan xolos. Biz ushbu ishimizda “Nazm ul-javohir” ruboiylari mavzu va g'oyalarini nisbatan keng miqyosda o'rganishga harakat qildik. Qolaversa, ushbu ishning asosiy ilmiy yangiligi shundaki “Nazm ul-javohir” asari kompozitsion qurulishi va asar muqaddimasida berilgan so'z qudrati bilan bog'liq fikrlar birinchi marta o'rganilmoqda.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Biz bitiruv malakaviy ishimizda “Nazm ul-javohir” asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganishni o'z oldimizga

---

<sup>2</sup> Navoiy Alisher. Назм ул-жавохир. XV жилдлик. XV жилд.- Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968. -13-63-б.

maqsad qilib qo'ydik. Ayni shu maqsad yo'lida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- "Nazm ul-javohir" asarining yaratilishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash, hamda asar muqaddimasida berilgan so'z qudrati haqidagi fikrlar bilan tanishish.
- "Nazm ul-javohir" asarining umumiy kompozitsion qurilishini aniqlash;
- Asarning asosiy qismida berilgan ruboiylar kompozitsiyasini tadqiq qilish.
- "Nazm ul-javohir" ruboiylari mavzular ko'lami va ularning g'oyaviy xususiyatlarini aniqlash.
- "Nazm ul-javohir" ruboiylarini badiiy jihatdan mukammal etgan jihatlar: vaznlar va she'riy san'atlari bilan tanishish.

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rt fasldan iborat ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

## **I-BOB. NAZM UL-JAVOHIR ASARINING YARATILISH TARIXI VA TARKIBIY TUZILISHI**

### **1.1. Muqaddimada asarning yaratilishi va soʻz qudrati bilan bogʻliq fikrlar**

Maʼlumki, Alisher Navoiy oʻzining deyarli barcha asarlarida soʻz xususida qimmatli fikrlarni bayon etadi. Xususan, shoir “Nazm ul-javohir”da soʻz qudrati, uning ulugʻligi, martabasining darajalari kabi bir qator masalalar yuzasidan mulohazalar yuritadi.

Muallif fikricha, insonni butun maxluqotdan ajratib turguvchi, uni barcha ofarin va maqtovga sazovor qilguvchi bu- nutq va soʻzdir. Ushbu fikrlar “Qur’oni karim”dagi “biz odam bolalarini siyladik” va “insonni goʻzal tuzilish bilan yaratdik” kabi oyati karimalar bilan dalillab bayon qilinadi: “Haq subhonahu va taolokim, insonni soyiri maxluqotdin mumtoz va majmui ofarinishgʻa sarvar va sarafroz qildikim: “Valaqad karamno bani odama” karimasi andin muxbirdurur, “Va laqad xalaqno al- insona fi axsani taqvimi” anga mush’ir. Munga jihat sharafi nutq va maqol erdi va mujibi lutfi kalomi farxunda maol”<sup>3</sup>.

Navoiy asarda oʻz fikrlarining taʼsirchanligi va yanada ishonarli boʻlishini taʼminlash maqsadida soʻzni dur-u gavharlarga oʻxshatadi. Shu oʻrinda aytish mumkinki, soʻzni aynan dur-u javohirga oʻxshatib taʼriflash koʻproq Navoiy ijodiga xos boʻlib, biz ushbu fikrlarning toʻgʻriligiga “Hayrat ul- abror” dostonining “Soʻz taʼrifida” bobida guvoh boʻlamiz:

Borcha koʻngul durji aro javhar ul,  
Borcha ogʻiz huqqasida gavhar ul.

Gar xud erur xanjari poʻlod til,  
Sufti dogʻi injulari soʻzni bil.

---

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. Мукаммал асарлар тўплами, 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. - 124-125-б.

Til bu chamanning varaqi lolasi,  
Soʻz duraridin boʻlubon jolasi<sup>4</sup>.

Koʻrinadiki, Navoiy bu oʻrinda soʻzga badiiy jihatdan yondashmoqda. Biroq muallif “Nazm ul-javohir” asarida soʻzga falsafiy jihatdan yondashadi va talmih vositasida insonni hayvondan ajratib turguvchi eng asosiy omil soʻz ekanligini koʻrsatadi: “Har oyina bu javhari jonbaxsh bashar xilqati konidin va bu lului ravonbaxsh inson vujudi ummonidin zohir boʻlmasa erdi-Iso bila markabi arosida ne tafovud va solih bila noqasi oʻrtasida ne mugʻoyarat boʻlgʻay erdi”<sup>5</sup>. Demak, inson soʻz durlari bilan ziynatlanmas ekan, Iso paygʻambar bilan ulovi orasida va solih paygʻambar bilan tuyasi oʻrtasida qanday farq qoladi? (Garchi ular paygʻambar boʻlsalar ham).

Shundan soʻng Navoiy yuqoridagi fikrlarning poetik taʼsirini oshirish va ularning davomiyligini taʼminlash, qolaversa, umumlashma fikrni bayon etish maqsadida quyidagi ruboiyni keltiradi:

Soʻzdurki nishon berur oʻlukka jondin,  
Soʻzdurki berur jongʻa xabar jonondin,  
Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhare sharifroq yoʻq ondin.

Shu oʻrinda professor Hamidulla Boltaboyevning quyidagi soʻzlarini taʼkidlash oʻrinli boʻladi: “Alisher Navoiy estetikasining dasturiga aylangan “Insonning guhari sharifligʻi”, yaʼni yaralmish zotlar ichida mukarram va ulugʻligi soʻz bilan (“Soʻz ayladiki, insonni judo hayvondin...”) deyilishining asosi shundaki, soʻz bilan ziynatlangan goʻzal va mukammal tarzda yaratilgan inson oʻzining eng goʻzal soʻzini, eng samimiy va tabiiy tuygʻularini Yaratganga bagʻishlaydi, unga hamd-u munojotlar aytadi, Xoliq bilan yuzma-yuz muloqotdagina (Hadisi sharifga koʻra “Namoz –

---

<sup>4</sup> Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 2006.-45-b.

<sup>5</sup> Oʻsha manba, 125-b.

mo“minning me’roji”) yuzaga chiqarishi tabiiy bir holdir”<sup>6</sup>.

Demak, insonlar va hayvonlar o’rtasidagi tafovut so’z sababidan ekan, biroq so’z va so’z o’rtasida ham cheksiz tafovut va farq mavjudki, hazrat Navoiy ushbu fikrni “insonlar aqlariga yarasha gapiradilar” oyati karimasi bilan izohlaydi va so’zning ham o’z tadrijiy martabasi borligi xususida qimmatli fikrlarni bayon qiladi: “Bu so’z kim, soyiri hayvonot bilan inson orasida dag’b tafovut aning sababidindur. Turfa bu kim, aning orasidag’a tavofut behaddu farq beaddad durki, “Kalamu an-nosu ala qadri uqulihim” andin xabar berur.

Ma’lum bo’ldikim, so’zga marotib bor va har martabada hunar ma’yib va ul marotib ijmoli yuzidin idrok va diqqatoyinlari va uqul xurdabinlari qoshida uch qism birla munqasimdurur”<sup>7</sup>.

Shu o’rinda aytish joizki, hazrat Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida so’zni ikki: nasriy va nazmiy qismlarga ajratadi va bu taqsimlash ko’proq poetik jihatdan amalga oshiriladi:

Nazm anga gulshanda ochilmog’lig’i,  
Nasr qaro yerga sochilmog’lig’i.  
Bo’lmasa e’joz maqomida nazm,  
Bo’lmas edi tengri kalomida nazm<sup>8</sup>.

Navoiy nazmning nasrdan ustunroq ekanini ko’rsatish bilan birga “Qur’oni karim”da ham nazm borligini ta’kidlamoqda. “Nazm ul-javohir” asarida esa u “Hayrat ul-abror” dostonidan farqli o’laroq, so’zni martabasi jihatidan uch qismga bo’lib tasniflaydi. Falsafiy jihatdan yondashilgan bu tasnif quyidagilar:

1. A’lo darajadagi so’zlar;
2. Avsat (o’rta) darajadagi so’zlar;

---

<sup>6</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. -10-б.

<sup>7</sup> O’sha manba, 125-b.

<sup>8</sup> Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. Toshkent: G’afur G’ulom, 2006.-47-b.



### 3. Adno (quyi) darajadagi soʻzlar.

Oʻz navbatida shoir aʼlo martabadagi soʻzlarni ham uch guruhga ajratadi va birinchi guruhga Alloh soʻzlarini kiritadi: “Aʼlo bobida koʻpdurur va soʻz yoʻq deganning ham soʻzi xoʻbdur. Ul kundan avvalini maliki qadim kalomida va soʻzi taʼrifida oʻz rasulidin xaloyiqqa paygʻomidurkim vahiy kotiblari lavhan vahyosor oʻz qalami moʻjiz nigori bilan: “Faatu bisuratin min mislihi”<sup>9</sup> salosi urub durlar. Va balogʻat bobida yak qalamliq sadosin sipehr munshisidin oshurb durlar”<sup>10</sup>.

Aʼlo darajadagi soʻzlarning ikkinchi guruhiga paygʻambar soʻzlarini kiritadi. Navoiy uchinchi guruhga Hazrat Ali soʻzlarini kitar ekan, uni valiylar shakaristonining shirin zabonli toʻtisi deya taʼriflaydi va hikmatlarini karomat dengizining laʼllariga oʻxshatib, ana oʻsha lallarni saxovatli va kuchli qoʻllari bilan zamonasi ahli boshiga sochganligini, yaʼni “Nasr ul-laoliy”ni (sochma durlar) bitganini aytadi. Shu oʻrinda aytish kerakki, Navoiy hazrat Ali hikmatlarini taʼriflar ekan, ana shu hikmatlarning zamon ahliga tarqalishida bevosita ishtirok etgan qalamni ham koʻzdan qochirmaydi. Yaʼni Navoiy hazrat Ali qalamini oʻz qilichidan nishona deydi va uning tezligini dulduliga oʻxshatadi: “Mundin soʻngra hidoyat gulistonining bulbuli xushilhoni va valoyat shakaristonining toʻtiyi shirin zaboni, karomat sarpanjasi bila balogʻat Xaybari eshikin ochqon va karam zoʻrdasti bila karomat bahri laolisin zamona ahli boshigʻa sochqon: ikki zabonliq kilki zulfiqoridin nishona va ul kilki zabonlari surʼatda duldulidek ravona bu barguzidaning nazmi gavhar nishoni va nasri luʼlufishonidur. Andin soʻngra mashoyih va avliyo (“Razi allohu anhu”) soʻzi boʻla olur”<sup>11</sup>.

Navoiy soʻz darajasining avsat (oʻrta) qatlamiga chiroyli va baligʻ soʻzlovchi kishilar, yaʼni ijod ahlining soʻzlarini kiritadi: “Va avsat soʻz

---

<sup>9</sup> Shunga oʻxshash surani keltirishlari (ga).

<sup>10</sup> Oʻsha manba, 125-126-b.

<sup>11</sup> Oʻsha manba, 126-b.

jamoati fusahoyi balog'atshior va bulag'oyi fasohatdisor iborati farhunda ishoratlaridurkim, zohir yuzidin sanoye' oyin va badoye tazyin voqe' bo'lubdur "alo qadri marotibihim" (martabalariga loyiq qildi)<sup>12</sup>.

Muallif uchinchi, ya'ni so'z darajasining quyi martabasiga avom so'zini kiritib, uni ham ikki darajada tasniflaydi: 1. Ma'noli so'zlovchilar so'zi; 2. Ma'nosiz so'zlovchilar so'zi: "Va adno so'z xayli avom takallumi, balki soyir un-nos tarannumidurkim, ba'zining alfozidin kishiga ma'ni ma'lum bo'lur va ba'zidin bo'lmas"<sup>13</sup>.

Navoiy so'z martabasini darajalarga bo'lib tasniflar ekan, uning naqadar mushkul va nozik ish ekanidan ajablanadi va shundan so'ng fikriy umumiylikni ta'minlovchi va uning ta'sirchanligini oshiruvchi ruboiyni keltiradi:

Rifa't aro favqi arshi a'zam so'z emish,  
Jonbaxsh dami Masihi Maryam so'z emish,  
Ma'ni durri anda barcha mudg'am so'z emish,  
Ulkim, anga ma'ni o'lmag'ay ham so'z emish<sup>14</sup>.

Ko'rinadiki, keltirilgan ruboiyning birinchi misrasida so'z buyuklikda arshi a'loga, ikkinchi misrasida esa jonbaxshlikda Iso masihga tenglashtirilmoqda. Xuddi shu fikrga yaqin fikrni biz "Hayrat ul-abror" dostonida ham uchratamiz:

Tirguzub o'lganni kalomi fasih,  
O'ziga jonbaxsh laqab deb Masih<sup>15</sup>.

Ushbu fikrlardan so'ng Navoiy so'z bog'ini ajab gulistonga o'xshatadi. Bog'ning xushbo'y va go'zal gullari bo'lsa-da, biroq zararli tikonlari va foydasiz xas-u xoshoklari ham borki, so'z gulshani ham xuddi shunday: uning go'zal va foydalilari bo'lgani kabi xas-u xoshok va tikan misol foydasiz

---

<sup>12</sup> O'sha manba, 126-b.

<sup>13</sup> O'sha manba, 126-b.

<sup>14</sup> O'sha manba, 126-b.

<sup>15</sup> Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. - Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. - 45-b.

va zararlilari ham bor. Biroq bulbul tikonga emas, gulga qo'nadi, zog' esa tikonga.

Lekin bu bahor jilva og'oz qilur,  
Bo'ston aro gulsho'xlari noz qilur,  
Gar zog' tikan aro vatansoz qilur,  
Bulbul bori gul bargiga parvoz qilur<sup>16</sup>.

Asarni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo'lamizki, Navoiy ushbu ruboiyni bejiz keltirmaydi, chunki u o'z tab'ini bulbulga mengzaydi. Hamda uning so'z gulistonini vatan tutganini, tutganda ham xas-u xoshok misol so'zlarni emas, balki eng go'zal va ma'noli so'zlarni tanlaganini ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, Navoiy hazrat Ali hikmatlarini nafaqat dur-u javohirlarga, balki bog'ning eng nafis va go'zal gullariga o'xshatayotgani ma'lum bo'ladi. Navoiy so'z qudrati bilan bog'liq fikrlarni yakunlab, asar yozilishi sabablarini bayon qilishga kirishar ekan, ushbu fikrlarimizning to'g'riligiga iqror bo'lamiz: "Lojaramkim, ko'prak avqotim Kalomulloh ishtig'oli va aning tafosiri qiylu qoli bila o'tar erdi, to ahodis daryosig'a g'avs qilur erdim va andin garonmoya gavharlar ilikka kivurur erdim, to Hazrati amir so'zlari ravzalari tomoshosig'a qadam qo'yar erdim va har ravzada "Va hur'atnika misol sul-lu'lu al-maknuna" visollaridan bahra topar erdim: bataxis "Nasr ul-laoliy" kim, ul Hazratning valoyat daryosidin chiqqon samin la'lulardir va karomati ummonidin hosil bo'lg'on garonmoya injular"<sup>17</sup>.

Hazrat Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining yozilishi sabablariga to'xtalar ekan, asar muqaddimasida uning ikkitasini batafsil bayon qiladi. Ya'ni birinchi sabab sifatida fors shoirlari tomonidan "Nasr ul-laoliy" hikmatlari nazmga solib kelingani aytilsa, ikkinchi sabab sifatida esa shoh Husayn Boyqaroning "Risola" asarini bitganligi "Nazm ul-javohir" asarining

---

<sup>16</sup> O'sha manba, 127-b.

<sup>17</sup> O'sha manba, 127-b.

yozilishiga eng asosiy turtki bo'lgani bayon qilinadi. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, Ma'rifat Rajabova "Nazm ul-javohir" asarining yaratilishiga doir muhim ma'lumotlarga to'xtalar ekan, yuqorida keltirilgan ikki sabab bilan birga yana bir uchinchi bir sababni ham keltiradiki, bu Hazrat Ali qabrining Balxdan topilishidir. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha bo'lib, muallifning e'tiroficha 1481 – 1482-yillarda biri Hindistonning Mo'lton shahridan va yana biri Balxdan ikki qadimiy kitob topiladi. Bu kitoblar asosida Ali ibn Abutolibning qabri Balxda ekani ma'lum bo'ladi. Bu kitoblarning Mo'lton nusxasida yozilishicha, Hazrat Ali qabri 530/1136 yilda saljuqiylardan Sulton Sanjar davrida Balxdan topiladi. Biroq mo'g'ullar bosqinidan so'ng qabir joyi yo'qoladi, bora-bora uning mavjudligi ham aholi tomonidan unutiladi va afsonaga aylanadi. Bu haqda Balx xokimi Mirzo Boyqaro Xirotda malum qiladi. Ushbu voqeani Ma'rifat Rajabova Afg'on olimi Hofiz Nurmuhammad Kahgadoiyning "Tarixchai mazori Shoh avliyo" asaridan qilgan tarjimasi asosida quyidagicha bayon qiladi: "Kunlarning birida Mirzo Boyqaro (Sulton Husayn Boyqaroning akasi Balx xokimi) Hirot dor us-saltanasiga bu voqeaning tafsiloti yozilgan maktubni yo'llab, uni ta'mir etish uchun ko'rsatma berilishini so'radi. Oliy darajali Sulton (Husayn Boyqaro) ushbu sharh-u tafsillarga ishonqiramay, uni tahqiq etish uchun amiri kabir Alisherni Balxga yubordi. Vaziri ravshanzamir, ya'ni Amir Alisher sheri xudoning (Hazrat Alining) diydoridan ko'ziga nur olib, haqiqiy ahvolni batamom mushohada qilib ko'rdi, ojizlikdan lolu ilhaqlik bilan Hirot saroyiga batafsil xabar yubordi va o'z maktubini "Musulmonlarga xushhabar beringki, shak-shubhasiz, ular uchun katta fazlu marhamatlar bordur" oyati karimasi bilan boshlab, ushbu (matla'li) g'azal bilan yakunlaydi:

Dardkash Balx komida may bazmi paydo bo'ldi,

Bu boshlanishlarning bari Balxning tugashida paydo bo'ldi.

Hirotdan Balxga darhol Husayn Boyqaro boshchiligida Abdurahmon Jomiy, Mavlono Mu'in, Husayn Voiz Koshifiy, Sa'duddin Taftazoniylar bir dunyo odam bilan yetib kelishadi. Husayn Boyqaro baland ovoz bilan iltijoli g'azal aytgan holda qabr tepasiga keladi. Barchalari hayajonda. Husayn Boyqaro Hazrat Ali xokini Hirotda olib ketishga qaror qilganini bildiradi. Ammo ulamolarning maslahatiga ko'ra, bu ishni noravo bilib, fikridan qaytadi. U bu yerda saltanat hisobidan muhtasham maqbara qurishga farmon beradi. Bunday mas'uliyatli ishni mashhur usta Muhammadxon Bannoiyga topshiradi. Mazori Sharifda hozir ham saqlanayotgan hashamatli maqbara ayni o'sha davrga mansub obidadir"<sup>18</sup>.

Muallif ayni shu voqeaning ta'siri ham Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarinig yozilishiga yana bir sabab ekanini ta'kidlaydi.

Biz yuqorida asarning yozilishiga sabablardan yana biri sifatida "Nasr ul-laoliy" hikmatlarining forsigo'y shoirlar tomonidan nazmga solingani xususida aytib o'tdik: "Va abnoyi zamondin va afozili davrondin ba'zidinkim, tab'i qasri rafi' ul-bino (keng bino) va ilmi muaskari bade' ul-livo (mohir qo'mondon) bo'lg'ay, andoq ma'lum bo'lar erdikim, bu lu'lularnikim g'ayrati shohi viloyatining bahri kaffi sochibdur, forsiy uslub bila nazm silkiga tortadur. Va ul injularnikim, mag'rib daryosi yoqasig'a to'kubdur, intizom rishtasig'a chekadur"<sup>19</sup>.

Demak, "Nasr ul-laoliy" hikmatlari hali turkigo'y shoirlar tomonidan nazmga solinmagan bo'lib bu ishga birinchi bo'lib Hazrat Navoiy qo'l uradi. Biz ayni shu haqiqat zamirida ikkita sabab mavjudligiga guvoh bo'lamiz:

1. Ma'lumki, Hazrat Navoiy o'z ijodiy faoliyati davomida turk tilining badiiy imkoniyatlarini ochishga xizmat qildi (fors tilini kamsitmagan holda albatta). Bunga mutafakkirning "Xamsa", "Muhokamat ul-lug'otayn" kabi asarlari

---

<sup>18</sup> Ражабова М. «Назм ул-жавоҳир» тарихига оид муҳим манба // Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг олам шумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 72-75-б.

<sup>19</sup> O'sha manba, 127-b.

guvohlik beradi. Ayni ushbu qatorga biz “Nazm ul-javohir” asarini ham kiritishimiz mumkin;

2. Hazrat Navoiy o‘z elini o‘z ona tillarida “Nasr ul-laoliy” hikmatlarining tarjimai va nazmiy talqinidan bahramand bo‘lishini ta‘minladi, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Fikrimizning to‘g‘riligiga quyidagi iqtibos ham guvohlik beradi: “Va parishon xotirg‘a va oshufta zamirg‘a bu orzu ko‘p dag‘dag‘a solur erdikim, turkiy tili bila men ham ul la‘olin orasta qilg‘ayman va bu muddao ko‘p taraddud yetkurur erdikim, mo‘g‘ul uslubi bila men ham ul javohirlarni pirosta etgayman, to zamona nav arusi Zeboliq libosi ul murass‘a bila ziynat topqay va sipehr masnatida anjum shohining sarafrozliq toji ul tarsi’ bila mukallal bo‘lg‘ay to andin turk ulusig‘a ham hazzi shofi va bahrai vofi muyassar bo‘lg‘ay”<sup>20</sup>.

Ayni shu fikrlardan so‘ng muallif asarning yozilishiga turtki bo‘lgan asosiy sababni ko‘rsatadi va asarning yozilgan sanasiga ham batafsil to‘xtaladi. Ya‘ni Navoiy ko‘p yillardan buyon nima uchundir bu ishga qo‘l ura olmayotgani, Husayn Boyqaro “Risola” bitgachgina bu maqsadni amalga oshirishga kirishganini bayon qiladi va asarning yozilish tarixini 890/1485 yillar ekanini ko‘rsatadi: “Tarix sakkizyuzi to‘qson erdikim “fayz”<sup>21</sup> xurfining hosili bo‘lg‘ay”.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro asarini mehr bilan ta‘riflaydi: “Latoyifi laoliyi samini bila mamlu va zaroifi yavoqiti otashini bila mashhun va inoyati bahoristonidin g‘arib ravza ochildi, maoni sarvu gullari bila ruhparvar maqosidi shamshod va sunbullari birla ruhgustar, yo‘q, yo‘qkim, juzve, balki daftare, ne daftarkim, jungi, qaysi junkim, baxre’ juzv desam, qaysi juzvning har harfi mazhari kull bo‘la olg‘ay. Agar jung desam, qaysi jungda yuz daryo topilibdur va agar daryo desam, qaysi daryoning har durri quyosh gavharig‘a

---

<sup>20</sup> O‘sha manba, 128-b.

<sup>21</sup> Bu o‘rinda fayz so‘zi asarning yozilish yilini bildirib, abjad hisobi bo‘yicha arab alifbosidagi “f” harfi 80 raqamini, “y” harfi 10 raqamini va “z” (zod) harfi 800 raqamini ifodalaydi. (80+10+800=890).

ortuqchuliq qilibdur”<sup>22</sup>.

Ayni shu ta’rifdan so’ng Navoiy o’zining taronayi ruboiylar bitganini faxr bilan bayon qiladi (“nasr ul-laoliy” hikmatlariga): “Aql aning idrokidin ojiz bo’lib, bu taronag’a tarannum tuzdikim,

Ruboiya:

Ne safhai iqbol-u saodatdur bu,  
Alfozi aro ne zebu ziynatdur bu,  
Ma’nisida har sori ne diqqatdur bu,  
Olam eliga mujibi hayratdur bu”<sup>23</sup>.

Navoiy ushbu risolani bitgan shoh Husayn Boyqaroning bir qator sifatlarini oyat va hadislar keltirish asosida do’stona ta’riflaydi. Xususan, uning buyukligini: “Shahedurkim, olam shohlari anga farmon pazerdurlar deya izohlaydi va uning shohligini xalifalik darajasiga tenglashtiradi: Xilofat panohekim, “Inna joila filarzi xalifata” tirozidurur, aning qomati iqbolig’a loyiq uning adolatini va xalq parvarligini “bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan yaxshidir”, haqiqatda Alloh yaxshilik va adolatga buyuradi” kabi oyat va hadislar asosida tavsiflaydi. Shu kabi ta’rifu tavsiflardan so’ng Husayn Boyqaroni madh etguvchi uchta ruboiyni qatorlatib keltiradi. Ushbu ruboiylar zahirida ham biz bir qancha ma’noni anglaymiz:

1. Ular nasriy usulda bitilgan do’stona vasfning nazmiy uslub bilan muzayyanlashganini bildirsa;
2. Ushbu ruboiylarga qo’shimcha ma’no yuklangan bo’lib, biz ularni nasriy qismning to’ldirilgan nusxasi deyishimiz ham mumkin. Xususan, Navoiy nasriy vasfga qo’shimcha tarzda nazmiy vasfda Husayn Boyqaroni Jamshid va shoh Iskandarlarga tenglashtiradi;
3. Ruboiylarning qatorlashib kelishi: (Husayin Boyqaro vasfiga bag’ishlangan ushbu qismda biz bu holatni takror va takror uchratamizki, ularning barchasi

---

<sup>22</sup> O’sha manba, 128-b.

<sup>23</sup> O’sha manba, 128-b.

nazarda tutilmoqda)

- a) Navoiyning Husayin Boyqaroga cheksiz hurmatini ifodalasa,
- b) “Nazm ul-javohir” asarining yozilishiga eng asosiy sabab “Risola” asarining bitilganidir, deyish mumkin. Chunki muallif asarning yozilishiga oid boshqa sabablar xususida (xususan, hikmatlarning forsiy tilda nazmga solib kelingani haqida) bu qadar ko‘p to‘xtalmagan. Demak, “Risola”ning bitilishi uchinchi, biroq eng asosiy sabab ekani ma’lum bo‘ladi.

Jism o‘ldi jahon bu jismning joni ham ul,  
Taxt o‘ldi falak bu taxt sultoni ham ul,  
Bahr o‘ldi maoni guharafshoni ham ul,  
Olam elining shohi suxandoni ham ul.

Ofoq ganji zoti farxundasi bil,  
Aflok charog‘i royi raxshandasi bil,  
Jamshedni hashmat ichra sharmandasi bil,  
Donishda Skandarni kamin bandasi bil.

Har kimki zaif dilnavozi de ani,  
Har kimki fitoda chorasoz de ani,  
Har kimki g‘amin mahrami rozi de ani,  
Shohiki bu nav’ Shohi G‘ozi de ani.

Navoiy “Risola” asarini ta’riflar ekan, uni boshdan oyoq oyat va hadislar bilan muzayyan qilganini aytadi va mo’jizakor baytlar tarkib qilgan muallif Husayn Boyqaroni Zahir, Anvari, Vassof va Tabriziy kabi buyuk forsiy shoir va muarrixlariga tenglashtiradi: “Fotihasin xotimasig‘a degincha oyoti kalomi maliki allom bila muzayyan va ahodisi rasuli anom alayhissalotu vas-sallam bila mubayyan va abyoti mo’jiza monandi tarokibidin Zahir va Anvari ruhi sharmanda va fiqaroti sehr payvandi



salosatidin Vassof bila Tabariy ravoni saraf kanda”<sup>24</sup>.

Muqaddima so’ngida Navoiy asarni Husayn Boyqaroga bag’ishlab yozganini bayon qilarkan, asar nomini “Nazm ul-javohir” deya ataganini ham aytadi. D. Yusupovaning ta’kidlashicha, asarning “Nazm ul-javohir” deya nomlanishida ramziylik bo’lib bu Hazrat Ali hikmatlarining bir tizimga tizilganligidan dalolatdir<sup>25</sup>:

Yo rab, ul javohirlarniki, manzum ettim,  
Chekkanim anga har nuktaki ma’lum ettim,  
Har nuktaga bir tarona marqum ettim,  
Ko’p gavhar aning zimnida maktum ettim.

Hazrat Navoiy asarni shunchaki yozishni maqsad qilmaydi, balki bu asarni o’qib xalq undan bahra olishini, bahra olganda ham, uni qidirib, sevib mutolaa qilishini xohlaydi:

Sen dog’i ulus ko’ngliga marg’ub et ani,  
Oshiqvashlar qoshida mahbub et ani,  
Tolib qilibon xalqni matlub et ani,  
Mazmuni kibi boshtin-oyoq xo’b et ani.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Asarda Navoiy so’zga yuksak e’tibor bilan qaraydi va uni inson buyukligining asosi ekanini takidlaydi: “Bilkim guhare sharifroq yo’q ondin”.
2. Boshqa asarlardan farqli o’laroq, “Nazm ul-javohir” asarida Navoiy so’zga ko’proq falsafiy jihatdan yondashadi hamda so’zdan so’zning ham farqi bor ekanini ta’kidlab, uni uch guruhga tasniflaydi: a) a’lo darajadagi so’zlar guruhi; b) avsat (o’rta) darajadagi so’zlar guruhi; d) adno (quyi) darajadagi so’zlar guruhi.
3. O’z navbatida Navoiy a’lo darajadagi so’zlarni ham uch guruhga bo’ladi va birinchi guruhga “Qur’oni Karim” so’zlarini kiritsa, ikkinchi guruhga

---

<sup>24</sup> O’sha manba, 131-b.

<sup>25</sup> Bu haqda qarang: Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 197-б.

Muhammad (s.a.v.) soʻzlarini, uchinchi guruhga esa Hazrat Ali soʻzlarini kiritadi.

4. Soʻz darajasining oʻrta qismiga ijod ahlining soʻzlarini kiritadi va uning quyi qismiga xalq, yaʼni avom soʻzlarini kiritib, uni ham maʼnoli va maʼnosiz guruhlariga tasniflaydi.

5. Navoiy asar yozilishi sabablariga toʻxtalar ekan, Hazrat Ali hikmatlarini duru javohirlarga va eng goʻzal gullarga tashbih qiladi hamda muqaddimada ikkita sababni batafsil bayon qiladi.

6. Asar yozilishi sabablaridan birinchisi hikmatlarning forsigʻoy shoirlar tomonidan nazmga solib kelingani boʻlib, Navoiy bu anʼanani turkiychada davom ettiradi hamda turkiy til imkoniyatlarining ochilishiga yana bir zamin yaratadi (“Xamsa” kabi).

7. Asar yozilishining yana bir sababi, Hazrat Ali qabrining Balxdan topilgani boʻlib, bu haqda Maʼrifat Rajabova batafsil maʼlumot beradi.

8. Asarning yozilishiga eng asosiy sabablardan biri bu Husayn Boyqaroning “Risola” asarini bitgani boʻlib, muqaddimada Navoiy ayni shu hodisani bir muncha vaqt amalga oshirolmay kelayotgan orzusi, yaʼni, asarni yozishga qoʻl urganiga eng muhim turtki boʻlganini taʼkidlaydi.

## **1.2. Asarning kompozitsion qurilishi**

Maʼlumki, kompozitsiya asar bir butunligini, yaxlitligini belgilovchi, uning gʻoyasini ochishga xizmat qiluvchi, shu bilan birga ijodkor estetik didini anglatuvchi muhim omildir: “Kompozitsiya (lot. Composition - tuzish, biriktirish) badiiy asar qismlarini yaxlt badiiy niyat (muayyan konsepsiyani shakllantirish va ifodalash koʻzlangan gʻoyaviy-estetik taʼsir) ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy sistema asardagi qismlarni oʻzaro aloqa va munosabatlari ravshan anglanadigan tarzda butunlikka biriktirish”<sup>26</sup>.

Demak, kompozitsiya shakl va mazmun mutanosibligini taʼminlovchi,

---

<sup>26</sup> Қуронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Akademnashr, 2013. -141-б.

ijodkor badiiy mahorati darajasini aks ettiruvchi vosita bo'lib, unda badiiy unsurlarning birontasi ham ortiqcha yoki kam bo'lmasligi zaruriy talab hisoblanadi.

Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari xususida so'z borar ekan, uning muhim jihatlaridan biri bu kompozitsion mukammal tuzulishga egaligidir. Asar ikki muqaddima va asosiy qismdan tashkil topgan bo'lib, muqaddimaning o'zi ham Hamd, Nat, to'rt xalifa tavsifi, so'z ta'rifi, asarning yozilish sabablari, Husayn Boyqarota'rifi kabi qismlardan iborat.

Muqaddimada keltirilgan har bir fikr oyat va hadislar asosida aniq dalillanadi va ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lgan taronayi ruboiylar keltiriladi. Bu esa asarda bayon etilgan fikrlarning aniq va ishonarli bo'lishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Fikrmizning dalili sifatida Husayn Boyqaro tavsifiga e'tibor qaratamiz. Bunda Navoiy Boyqaroning buyukligini, adolatini, xalqparvarligini, muzaffariyat va g'alabalarini va fasih ijodini bir qator oyat va hadislar bilan izohlaydi: "Shahedurkim, olam shohlari anga farmonpazirdurlar va shahedurkim, davron shahanshohlari ribqai hukmida asir, xilofatpanohekim, "Inna joila filarzi xalifata"<sup>27</sup> tirozidurur, aning qomati iqboliq'a loyiq adolat dastgohekim, "Adl soatin xayrun min ibodati sitiyna sunnatin"<sup>28</sup> davojidurkim, aning taxti falak misoli kitobasig'a muvofiq raiyatnavozekim, "Innal-lohu ya'muru bil-adli val ehsoni"<sup>29</sup> lam'adur aning mir'oti lomi' muxolifguzore "Va yanhi an alfuhasho val-munkar vabug'o"<sup>30</sup> ashi'adurur aning tig'i qahrada sote', safshikanekim: "Inna fathno laka mubinan"<sup>31</sup> debochadurur qazo kilkidin aning shuqqasi livosig'a yoqilg'on a'do afganikim: "Va yansuraka Allohu nasran azizan"<sup>32</sup> oyati durur qadar

---

<sup>27</sup> Men yerga xalifa, qilib tayinlayman.

<sup>28</sup> Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan yaxshidir.

<sup>29</sup> Haqiqatda Alloh adolat va yaxshilik qilishni buyuradi.

<sup>30</sup> Va faxsh, ifloslik va adolatsizlikni rad etadi.

<sup>31</sup> Va Allohning senga kuchli yordam berishi uchun.

<sup>32</sup> Va Allohning azizlarga yordami surasi.

xomasidin aning tig'i yuziga qazilg'on fasohat shiorekim: "Aynan tasammo Salsabilan"<sup>33</sup> zuloli aning daryoyi hayot tab'idin rashhai bo'la olg'ay, balog'atdisorekim: "Va qiyl yorzi ablag'i ma'hudi"<sup>34</sup> aning xuqqai pur gavharig'a takallum vaqti diqqati kalom bila tatabbu' qila olg'ay"<sup>35</sup>.

Ayni ushbu fikrlardan so'ng Hazrat Navoiy Husayn Boyqaroni ta'riflovchi uchta taronayi ruboiyni keltiradiki, bu tavsifning fikriy va badiiy ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida muqaddimada keltirilgan ruboiylarning fikriy ta'sirchanlikni amalga oshirish uchun xizmat qilganligini aytib o'tdik. Ularning yana bir muhim jihati shundaki, ayni o'sha ruboiylar fikriy umumiylikni berishga ham xizmat qiladi. Xususan, Navoiy so'z martabasini uch darajaga bo'lib guruhlar ekan, uni a'lo, o'rta va quyi darajalarga tasniflaydi hamda tasnif so'ngida fikriy umumiylikni taminlovchi quyidagi ruboiyni keltiradi:

Rifa't aro favqi arshi azam so'z emish,  
Jonbaxsh dami masihi Maryam so'z emish,  
Mani durri anda barcha mudg'am so'z emish,  
Ulkim anga ma'ni o'lmag'ay ham so'z emish.

Shu o'rinda aytish mumkinki, "Nazm ul-javohir" muqaddimasida fikriy ta'sirchanlik va umumiylikni ifodalash maqsadida aynan ruboiy janridan foydalanilganligi asar kompozitsiyasining o'ziga xosligini ta'minlagan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. To'g'ri muallif fard, qit'a, g'azal kabi boshqa janrlardan ham foydalanishi mumkin edi. Biroq fard ixcham shu bilan birga ulkan ma'noni o'zida aks ettirsa-da aynan ko'zlangan ma'noni berishga qodir emas (chunki fard janrida fikr o'ta umumiy ahamiyat kasb etadi). G'azal esa aksincha, ko'zlangan ma'noni batafsil yoritishga imkon beradi,

---

<sup>33</sup> U yerdagi Salsabil atalmish chashmadan.

<sup>34</sup> Aytildiki, ey yer-suingni yutgil.

<sup>35</sup> O'sha manba, 129-130-b.

lekin hajm jihatidan ruboiydan katta, shu sababli ham aynan umumiylikni ifodalashga qodir emas. Ruboiy esa, o'zining ixchamligi fikrni ta'sirchan va undan ko'zlangan ma'noni umumlashma holda aks ettira olishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Asarda aynan taronayi ruboiylarning keltirilishi esa mantiqiy go'zallik bilan birga badiiy nafosatning ham yuqori darajaga chiqishida alohida ahamiyat kasb etgan. Biz ushbu fikrlarni nafaqat muqaddimadagi, balki asarning asosiy qismidagi ruboiylarga ham taalluqli deya bemalol ayta olamiz.

“Nazm ul-javohir” asarining asosiy qismi ham o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, avval Hazrat Alining arab tilidagi hikmatlari beriladi so'ngra esa ularning turkiy tilda taronayi ruboiy shaklidagi talqini keltiriladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, asar sarlavhasining aynan “Nazm ul-javohir” deya nomlanishi ham ayni shu xolatga ishoradir: “Chun “Nasr ul-laoliy”ni nazm silkiga tortildi va otin “Nazm ul-javohir” qo'yildi”<sup>36</sup>.

Hazrat Ali hikmatlarining “Nazm ul-javohir” asarida aynan taronayi ruboiylarda berilishida ramziylik bo'lib, buni D. Yusupova quyidagicha izohlaydi: “Shoh taxtining to'rt poyasi uni ko'tarib turadi, Ka'batullohni biz to'rt devori bo'lgani uchun tasavvur eta olamiz, falakning to'rtinchi qavati quyoshning maskanidir va boshqalar”<sup>37</sup>. Muallif ushbu fikrlarini asardagi quyidagi ruboiy bilan izohlaydi:

Har birini to'rt durri shahvor degil,  
To'rtunchi falakda mehr zarkor degil.  
Rub'i maskunda Ka'bai osor degil,  
Baytul muqaddasqa to'rt devor degil.

Ushbu fikrlarga qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, ruboiylarning to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lishi yana xalifalarning to'rtta ekanligiga va dunyoning to'rt unsuridan tashkil topganligiga ham ishoradir:

---

<sup>36</sup> O'sha manba, 136-b.

<sup>37</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 197-б.

Har birisi to'rt rishtai durrmu ekin?

Yo lu'lui daryoyi tafakkurmu ekin?

Yo har biridin durrg'a tafaxxurmu ekin?

So'z ruhig'a yo'qsa to'rt unsurmu ekin?<sup>38</sup>

Navoiyning mahorati yana shunda namoyon bo'ladiki, u to'rt xalifani ta'riflar ekan ularning barchasini bir ruboiyga jam qiladi va har bir misrada bittadan ta'rifi keltiriladiki, bu yuqoridagi fikrlarimizni yanada ravshan qiladi:

Avvalg'ini fazl durrig'a ummon bil,<sup>39</sup>

Soniysini adl gavharig'a kon bil,<sup>40</sup>

Soliysini xayo gulbunig'a bo'ston bil,<sup>41</sup>

Robi'ini valoyat badanig'a jon bil .<sup>42</sup>

Asardagi Hazrat Ali hikmatlari va ularning ruboiydagi talqini 255 tani tashkil qiladi. Biroq bu ko'rsatkich ba'zi manbalarda 260 ta, ba'zilarida esa 268 ta deya e'tirof etiladi. Xususan, Yoqubjon Is'hoqov o'zining "Navoiy poetikasi" asarida ruboiy janriga to'xtalar ekan, "Nazm ul-javohir" ruboiylari sonini 260 ta deya ko'rsatadi.

"Nazm ul-javohir" va "Nasr ul-laoliy"ni tadqiq etgan olim Ma'rifat Rajabova o'zining "'Nazm ul-javohir" manbalari va badiiyati" nomli nomzodlik disertatsiyasida "Nasr ul-laoliy"ning yaratilish tarixi va qo'lyozma manbalari xususida to'xtalib ularni talqin etgan "Nazm ul-javohir" ruboiylari sonini 268 ta ekanini ta'kidlaydi: "Navoiy "Nasr ul-laoliy" tarkibidagi 268 hikmatni turkiy ruboiylar shaklida nazmiy tarjima qilib, unga "Nazm ul-

---

<sup>38</sup> O'sha manba, 135-b.

<sup>39</sup> Bu o'rinda Hazrat Abubakr Siddiq (r.a.) nazarda tutilmoqda. U islomni ilk qabul qilganlardan bo'lib, xalifalik yillari 632-634-yillarni tashkil qiladi.

<sup>40</sup> Bu o'rinda ikkinchi xalifa Umar Ibn Hattob (r.a.) nazarda tutilmoqda. U o'zining adolati bilan islom olamida mashhur bo'lib, 634-644-yillarda xalifalik qilgan.

<sup>41</sup> Bu o'rinda uchinchi xalifa Usmon Ibn Affon (r.a.) nazarda tutilmoqda. Uning xalifalik yillari 644-656-yillarni tashkil qiladi.

<sup>42</sup> Bu o'rinda Hazrat Ali Ibn Abutolib (r.a.) nazarda tutilmoqda. Uning xalifalik yillari 656-661-yillarni o'z ichiga oladi. (Hazrat Navoiy boshqa xalifalarga nisbatan Hazrat Aliga kengroq o'rin ajratadiki, buning boisini hikmatlarning ruboiyga solinishidir, deyish mumkin).

javohir” deb nom berdi”<sup>43</sup>. Ayni ushbu tadqiqotda Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan havola beriladi va unda “Nasr ul-laoliy” hikmatlariga talqin sifatida bitilgan ruboiylar soni 260 ta ekani aytiladi: “Va shu kabi “Nasr ul-laoliy”ning turkiycha tarjimasida 260 ruboiy nazm qilgandirlarki, uning har to’rt misrasi bir hil qofiya va bir hil radiflidir. Ko’rinishicha ul hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan har to’rt misrasi qofiyadosh va radifdosh bo’lganiga nima yetsin”<sup>44</sup>.

Ayni shu raqamni D. Yusupova 255 ta deb ko’rsatadi: “Alisher Navoiyning “nazm ul-javohir” asari nasriy usulda yozilgan muqaddima va Hazrat Alining 255 raqam ostida tartiblangan arab tilidagi o’gitlarining turkiy tilda ruboiy shaklida berilgan talqinidan iborat”<sup>45</sup>. Keltirilgan iqtiboslardan ko’rinadiki, bu masala o’z yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlari va “Nazm ul-javohir” ruboiylari insoniy fazilatlarning ulug’lanishi va noinsoniy illatlarning qoralanishi munosabati bilan didaktik axamiyat kasb etib, va bir kompozitsion markazga birlashsada biroq hikmatlarni talqin etuvchi har bir ruboiy o’ziga xos kompozitsiyaga ega.

Shu o’rinda aytish joizki, ruboiy janrining uni boshqa janrlardan ajratib turuvchi o’ziga xos belgilari bo’lib, ular hazaj bahrining axrab yoki ahram tarmog’ida bitilishi, to’rt misradan tarkib topishi, misralarning **a,a,b,a** yoki **a,a,a,a** tarzida qofiyalanishi kabilardir. Biroq bu xususiyatlar ruboiy janrining kompozitsiyasini aniqlashda yetarli emas. Ruboiyda fikrning qay tartibda berilishi va berilgan o’sha fikrlarning asar g’oyasini ochishga qay darajada xizmat qilgani kabi jihatlar borki, ular ruboiy janri kompozitsiyasini

---

<sup>43</sup> Ражабова М. “Назм ул-жавоҳир” манбалари ва бадиияти: Филол. фан. номз. дис. ...автореф. – Тошкент, 2006. – 10-б.

<sup>44</sup> Ражабова М. “Назм ул-жавоҳир” манбалари ва бадиияти: Филол. фан. номз. дис. ...автореф. – Тошкент, 2006. – 17-б.

<sup>45</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 196-б.

aniqlashda muhim omil xisoblanadi. Demak, “Nasr ul-laoliy” hikmatlari talqini boʻlgan “Nazm ul-javohir” ruboiylari 255 tani tashkil etar ekan, ularning har biri alohida kompozitsiyaga ega va shu bilan birga alohida tadqiq ham talab qiladi.

“Nazm ul javohir” ruboiylari kompozitsiyasi xususida soʻz borar ekan, Yoqubjon Is’hoqovning Hazrat Navoiy ruboiylari kompozitsiyasi haqida bildirgan fikrlariga eʼtibor qaratish zarur: “Navoiy ruboiylarining kompozitsiyasi bir tomondan shoirning har bir ruboiy asosiga qoʻyilgan gʻoyaviy pafosi va shuning mutanosib tasviri prinsplari bilan chambarchas bogʻliq. Chunki ruboiylar tematik jihatdan boy boʻlganidek ularning tasvir prinsplari ham xilma-xil. Shoir ishqiy mavzularda koʻproq tavsif – taʼrif yoʻlidan borsa shikoyat ruhidagi ruboiylarida bevosita bayon, sharh yoki ritorik soʻroq usulini qoʻllaydi. Falsafiy fikrlar ifodasida esa, koʻproq yaxlit poetik xulosani tamsiliy asoslashga harakat qiladi. Ikkinchi tomondan, toʻrt misraning qofiyalanishi hamda qofiya bilan bir radifning boʻlishi ruboiyning semantik sintaktik strukturasi yetarli darajada taʼsir oʻtkazadi”.

“Nazm ul-javohir” ruboiylari diniy, falsafiy-didaktik mohiyatga ega boʻlib, fikrning koʻlamdorligi, xulosaning aniqligi bilan oʻziga xos ahamiyat kasb etadi va shuni ham aytish kerakki, “Nasr ul laoliy” hikmatlari koʻpincha xulosa vazifasini oʻtaydi.

Biz yuqorida “Nazm ul-javohir” ruboiylarini “Nasr ul-laoliy” talqini deya koʻp eʼtirof etdik (garchi muallifning oʻzi tarjima deya eʼtirof etgan boʻlsa-da: “Hazrati Amir “Nasr ul-laoliy”si tarjimasi azimati qildim”). Bu haqda Dilnavoz Yusupova shunday fikr bildiradi “Biz bu oʻrinda tarjima emas, koʻproq talqin atamasini ishlatyapmiz. Chunki Alisher Navoiy toʻgʻridan-toʻgʻri tarjimini emas, balki badiiy jihatdan boyitilgan fikrlarni taqdim etadi”<sup>46</sup>.

---

<sup>46</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 197-б.



Shuni aytish kerakki, bu fikrlar ayni bir qolipda emas, balki har bir ruboiyda turli yo'sinda turlicha taqdim etiladi. To'g'ri, "Nasr ul-laoliy" hikmatlari "Nazm ul-javohir" ruboiylari kompozitsion markazi uchun muhim asos bo'lib hisoblanadi, lekin ularning joylashish tartibi hilma-hil.

Ba'zi ruboiylarda "Nasr ul-laoliy" hikmatlari ruboiyning birinchi misrasida beriladi va ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi misralarida uni izohlovchi fikrlar keltiriladi. Ba'zi ruboiylarning birinchi, ikkinchi, uchinchi misralarida ma'lum bir hikmat asosida baxs yuritiladi va to'rtinchi misrada ayni o'sha hikmat umumlashma xulosa tarzida beriladi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, asarda xuddi shu tipdagi ruboiylar ko'pchilikni tashkil etadi, quyidagi misollar fikrimizni dalillaydi:

71-hikmatda shunday deyiladi, dalilu aql il-mar'i qovluhu (kishining so'zi aqliga dalildir).

Odamki, demak bila kiromiyduru bas,  
So'z durri ishining intizomiduru bas,  
Sihhat onchaki, ahli aql komiduru bas,  
Aqliga dalil aning kalomiduru bas<sup>47</sup>.

102-raqam bilan berilgan ruboiyga e'tibor qarataylik. Undagi hikmatda botiniy husn zohiriy husndan yaxshiroqdir, deyiladi. Hazrat Navoiy esa ruboiyning birinchi, ikkinchi va uchinchi misralarida ikkinchi shaxsga murojaatan tanbeh beradi hamda to'rtinchi misrada Hazrat Ali hikmati asosida yagona xulosaga keladi:

102. Ziynat ubotini xayrun min ziynat iz-zohiri (botiniy husn zohiriy husndan yaxshiroqdir).

Eykim, qilasen jilvau ishrat chog'i zeb,  
Mustahsan emas er kishining qilmog'b zeb,  
Gar bo'lsa ishing ko'pragi yo ozrog'b zeb,

---

<sup>47</sup> O'sha manba, 148-b.

Zohirdin erur sutuda botindogʻb zeb<sup>48</sup>.

Baʼzi ruboiylar esa, hikmatni aynan biror misrada aks ettirmaydi, uning mohiyatini toʻrt misrani oʻqiganimizda tushunamiz. Bu tiptagi ruboiylar hikmat mazmunini saqlagan holda butunicha erkinlik yoʻli bilan boradi. Masalan, 122-ruboiyda quyidagi hikmat beriladi: kishilarning yomonrogʻi - xalqdan oʻzini olib qochuvchisidir. Hazrat Navoiy ayni shu hikmatni xulosa tarzda bir misraning oʻziga joylamaydida, balki uni toʻrt misrada kengaytirib ifodalaydi hamda erkin tarjimini hosil qiladi;

El qochsa birovdin el yamoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni,  
Feʼl ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon yamoni bil oni<sup>49</sup>.

Ayni shu yoʻsinda berilgan ruboiylardan yana biri 163-raqam ostidagi hikmat talqini hisoblanadi. Hikmatda ishning qiyini - osoniga eshik boʻladi, deyiladi. Ayni shu hikmat mazmuni saqlangan va toʻldirilgan xolda erkin tarjima qilinadi:

163. Ushr ul-amri muqaddamat ul-yusri (Ishning qiyini – osoniga eshik boʻladi).

Mushkullik ilaki ish adosi keldi,  
soʻngra anga “al-aysh” nidosi keldi,  
Ish saʼbki, odami balosi keldi,  
Osonligʻu ayshi ibtidosi keldi<sup>50</sup>.

Hikmatlarni talqin qilgan “Nazm ul-javohir” ruboiylari kompozitsion jihatdan rang-barang boʻlib, biz buni quyidagi omillar asosida izohlashimiz mumkin. Bunday rang-baranglikning birinchi sababi hikmatlarning mazmuni boʻlib, ularni ruboiy misralariga joylashtirishda shoir birinchi navbatda

---

<sup>48</sup> Oʻsha manba, 154-b.

<sup>49</sup> Oʻsha manba, 157-b.

<sup>50</sup> Oʻsha manba, 165-b.

mazmuniga e'tibor qaratgan hamda uni goh erkin tarjima qilgan, gohida esa biror misrada yoki ikki misrada xulosa yoki dalil sifatida aynan keltirgan. Bu rang-baranglikning ikkinchi sababi, hikmat zamirida lirik pafosning yaralishi bo'lib, bu asar g'oyaviy-badiiy xususiyatini oshiradi, va o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Fikrimizni dalillash maqsadida kompozitsion jihatdan yuqorida berilganlardan boshqacha tarzda bitilgan misollarga e'tibor qaratamiz. 154-hikmatda mol-dunyoga tashnalik - suvga tashnalikdan kuchliroqdir deyiladi. Uni talqin etgan ruboiyda esa birinchi va ikkinchi misralarda mol-dunyoga hirs qo'yishning eng yomon illat ekani aytiladi hamda uchinchi va to'rtinchi misralarda keltirilgan hikmat birinchi va ikkinchi misrani dalillashga xizmat qiladi.

154. Zama' ul-moli ashaddu min zama' il-mo' (mol-dunyoga tashnalik – suvga tashnalikdan kuchliroqdir).

Dunyo sori hirs har yamondin ortuq,  
Tark etmak ani kavnu makondin ortuq,  
Suvsizg'a suv shavqi bo'lsa jondin ortuq  
Bil siflag'a mol shavqi ondin ortuq<sup>51</sup>.

Shu o'rinda aytish joizki, radif vazifasini o'tayotgan ortuq so'zi ma'noni kuchaytirish bilan birga g'oyaning aniqligini, ruboiyning musiqiylikini ham ta'minlamoqda.

“Nazm ul-javohir” ruboiylari kompozitsiyasi sintaktik jihatdan ham e'tiborga molik. Ularning ko'pchiligida biz **kim** bog'lovchisidan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. **Ki** bog'lovchisining qadimiy shakli bo'lgan bu bog'lovchi ruboiyning birinchi va ikkinchi misrasini yoki uchinchi va to'rtinchi misrasini mantiqiy jihatdan o'zaro bog'laydi hamda fikrning aniqligini, daliliyligini taminlaydi. Uchinchi raqam ostida berilgan hikmatda boylikning izhori – shukrdir. Uni talqin etgan ruboiyning birinchi va ikkinchi

---

<sup>51</sup> O'sha manba, 163-b.

misralarida shukr qilishning afzalligi, uning balolarni qaytarishda ham ahamiyatli ekani aytiladi. Uchinchi misrada mol (boylik) istagan kishi shukr etishi zaruriyligi aytiladi va to'rtinchi misrada kim bog'lovchisi vositasida Hazrat Alining shukrning izhori boylikdir (shukr boylikni zuhr qildiradi, ya'ni uni ko'rsatadi, keltiradi) hikmati dalil vazifasini o'tagan va fikriy aniqlik tashkil topgan.

3. Izhor ul-g'any minash-shukri (boylikning izhori - shukrdandir).

Shukr ayladi shiddatda rijo izhori,  
Har mehnat aro daf'i balo izhori,  
Mol istasang et shukru sano izhori-  
Kim, shukr demak qilur g'ino izhori<sup>52</sup>.

Biz ayni shu bog'lovchini ikki o'rinda (ikkinchi va to'rtinchi misralar boshida) ham kelganiga guvoh bo'lamizki, ular o'zidan oldingi misralarni izohlashga, fikrni ravshanlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, 124-ruboiyda badanning sihati ro'zadan, deyiladi. U quyidagicha talqin qilinadi. Birinchi misrada kishilarni ro'za tutishga chaqiriladi, ikkinchi misrada esa **kim** bog'lovchisi orqali ro'zaning kishi ruhiyatini poklovchi davlat ekani aytiladi. Uchinchi misrada sog'lom bo'lishni istagan kishi yana ro'za tutishga chaqiriladi. To'rtinchi misrada esa **kim** bog'lovchisi vositasida fikr oydinlashadi. Bu o'rinda Hazrat Ali hikmati ruboiyni dalillash va xulosalashga xizmat qiladi.

124. Sihhat ul-badani fis-savmi (badanning sihati – ro'zadan).

Doim tut o'zunga ro'zaning mehnatini-  
Kim, ruhqa yetkurur safo davlatini,  
Sihhat tilasang qilg'il aning niyatini-  
Kim, ro'zada qo'ydilar badan sihatini<sup>53</sup>.

**Kim** bog'lovchisi ruboiylarning birinchi va ikkinchi misralarini ham

---

<sup>52</sup> O'sha manba, 137-b.

<sup>53</sup> O'sha manba, 158-b.

bog'lashga xizmat qilganki, quyidagi parcha fikrimizning dalilidir:

137. Zarb ul-lisoni ashaddu min ta'n is-sinoni (Til zarbasi – tish og'rig'idan kuchliroqdir).

Chun sinsa ko'ngul zaxmi zabon og'rig'idin-

Kim, ermas aning og'rig'i jon og'rig'idin,

Har neki sanga yetar lison og'rig'idin,

Bilgilki, qatiqdurur sinon og'rig'idin<sup>54</sup>.

Xulosa qilib shularni aytish mumkin:

1. Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari muqaddima va asosiy qismdan tashkil topgan bo'lib, o'zining mukammal kompozitsion tuzilishi bilan ahamiyatlidir.
2. O'z navbatida asar muqaddimasi hamd, nat, xulafoyi roshidin tavsifi, so'z qudrati ta'rifi, asarning yozilish sabablari Husayn Boyqaro vasfi kabi ichki bo'limchalariga ega bo'lib, unda keltirilgan har bir fikr oyat va hadislar asosida dalillanadi va ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lgan taronayi ruboiylar keltiriladi.
3. Asar muqaddimasida har bir fikrdan so'ng keltirilgan taronayi ruboiylar fikrning ta'sirchanligini oshirish bilan birga uning umumlashma ahamiyatini ta'minlaydi hamda falsafiy-badiiy mohiyatini oshirishga xizmat qiladi.
4. Asar asosiy qismi kompozitsion jihatdan o'ziga xoslikka ega bo'lib, avval Hazrat Alining arab tilidagi hikmatlari keltiriladi, so'ngra ularning talqini bo'lgan taronayi ruboiylar nazm qilinadiki, aynan tarjima emas talqin deyilishida ham ma'no bo'lib, bu hikmatlarning Hazrat Navoiy tomonidan mazmunan hamda g'oyaviy badiiy jihatdan kengaytirilishi bilan izohlanadi.
5. Hazrat Ali hikmatlarining aynan taronayi ruboiylarda talqin qilinishi ham bir qator ramziy ma'nolarni kasb etadi. Asar muqaddimasini o'rganish jarayonida muallif e'tirof etgan ana o'sha ramziy ma'nolar quyidagilarni

---

<sup>54</sup> O'sha manba, 160-b.

tashkil etadi:

- a) Dunyoning to'rt unsuridan tashkil topganligi;
- b) Islom olamida payg'ambarimizdan so'ng to'rt xalifaning mavjudligi;
- d) Shoh taxtining to'rt poyasi uni ko'tarib turishi;
- e) Falakning to'rtinchi qavati quyoshning maskani ekanligi;
- f) Ka'batullohning to'rt devori mavjudligi.

6. "Nazm ul-javohir" asari asosiy qismida berilgan ruboiylar fikrning ifodalanishi, mazmunning kengayish miqyosi, g'oyaning aniq va ravshanligi, Hazrat Ali hikmatlarining joylashish o'rni kabi bir qator xususiyatlarga ko'ra kompozitsion rang-baranglikka ega. Shunday bo'lsa-da, hikmatlarning aynan joylashishi va mazmunning saqlanishiga ko'ra hamda ana o'sha hikmatlar zahirida lirik pafosning yaratilishi munosabati bilan ularni quyidagicha guruhladik:

- a) Erkin tarjima;
- b) Hikmatlarning ayni bir misraga joylashtirilgan holdagi talqini;
- d) Hikmatlarning ikki misraga joylashtirilishi (xususan uchinchi va to'rtinchi) va ular ko'pincha birinchi va ikkinchi misradagi fikrlarning (yoki fikrning dalili sifatida keltirilishi).

## **2-BOB. NAZM UL-JAVOHIR ASARI HAZRAT ALI HIKMATLARINING NAZMIY TALQINI SIFATIDA**

### **2.1. Hikmatlarning g'oyaviy xususiyatlari, mavzu ko'lam.**

“Nasr ul-laoliy” hikmatlari o'zining sodda va tushunarligi, mavzu va g'oyalarining rang-barangligi, hamda hayotligi bilan bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, hikmatlar nasriy shakildagi qisqa ifodalar bo'lib, u didaktik mohiyatni aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, Hazrat Ali hikmatlari mavzular ko'lam va fikr yuritishdan avval arab adabiyotida hikmat janrining shakllanish jarayoni borasida qisqacha to'xtalmoq joiz. Ma'rifat Rajabovaning ma'lumot berishicha, johiliya davrida ham arablar hikmat janrida ijod etganlar. Ular qisqa sheriy shakllarda bitilgan bo'lib, dunyoning foniyligi, insonning o'tkinchiligini bayon qilish bilan birga qabilalar turmushiga raxna soluvchi noaxloqiy illatlarning ham qoralab yozilishi bilan didaktikada muhim ahamiyat kasb etgan. Islom davriga kelib esa, bunday shakldagi hikmatlar qisqa nasriy shakldagi ifodalarga aylandi va eng yashovchan badiiy vosita bo'lib qoldi.

Ma'rifat Rajabova hadislarning ham aynan hikmat tarzida berilganligini ularning ommabopligi bilan izohlaydi<sup>55</sup>. Ayon bo'ladiki, islom ahkomlari va odob-axloq mezonlarini xalqqa sodda va tushunarli yetkazish yo'lidan borish maqsadida aynan hikmat janridan foydalanilgan. Shu o'rinda payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisini eslab o'tish joiz bo'ladi: “Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Men hikmat hovlisiman, Ali uning eshigidir”, dedilar””<sup>56</sup>.

Hadisdan ma'lum bo'ladiki, hikmatlar diniy va axloqiy masalalarni

---

<sup>55</sup> Bu haqda qarang: Rajabova M. “Nazm ul-javohir” manbalari va badiiyati: Filol. fan. nomz. dis. ...avtoref. – Toshkent, 2006. – 13-b.

<sup>56</sup> Muḥammad Yusuḥ Muḥammad Sodiq. Ḥadis va ḥaёт. – Toshkent: Sharq, 2011. - 184-b.

o'rganishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ham aytish lozimki, Hazrat Ali o'zining zakovati bilan islom olamida muhim o'rin tutadi. "Arablarda hozirgacha biror masala yechilmay qolsa, "Bu bir masalaki, uni yechgani Abul Hasan yo'q" degan gap aytiladi"<sup>57</sup>.

"Nasr ul-laoliy" hikmatlarini mavzular ko'lamini jihatidan ikki katta guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Ularning birinchisi diniy mavzular bo'lsa, ikkinchisi ijtimoiy mavzulardir.

Diniy mavzulardagi hikmatlarda imon, namoz, ro'za, zakot kabi islom ruknlari xususida qimmatli fikrlar bayon qilinadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, asarni o'qish jarayonida nima uchundir islomning beshinchi rukni bo'lmish muqaddas Ka'ba ziyoratiga oid hikmatlarni uchratmaymiz. Ehtimol uning sababi, geografik yaqinlikning mavjudligidir.

Iymon islomdagi besh ruknning birinchisi bo'lib, 255 hikmatning to'qqiztasi imon mavzusini aks ettirgan. Ularda imonni mustahkamlovchi omillar hamda uning zaifligiga turtki bo'luvchi sabablar xususida didaktik fikrlar bayon qilinadi, qolaversa, asl mo'min kishining qanday bo'lishi kerakligi haqida o'gitlar beriladi. Xususan, birinchi hikmatda: "kishining imoni ahdiga vafo qilishidan bilinadi", - deyiladi. Uni talqin etgan ruboiyda fikr kengayadi va g'oya ravshanlashadi. Ya'ni ruboiyda imon insonning haqiqiy inson ekanini bildirishi bilan birga uni kufr ishlar qilishdan ham qaytarishi aytiladi:

1. Iymonu mar'i yu'rafu biaymonihi (Kishining imoni ahdiga vafo qilishidan bilinadi)

Iymoni aningki kufrig'a sotir erur,  
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,  
Har kimsaki imon ishida mohir erur,

---

<sup>57</sup> Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Ҳадис ва ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2011. - 185-б.



lymonini bilki, otidin zohir erur<sup>58</sup>.

32-hikmatda xuddi shu hikmatning davomiyligini ko'ramiz. Unda: "Uch narsa iymondandir: hayo, vafo, saxiylik", - deyiladi. Bundan tashqari: "Iymoni yo'qning dini ham yo'q; Kishining namozda erinchoqlik qilishi iymonning zaifligidandir; Tunni bedor o'tkazish mo'min kishiga nur ato etadi; Qalbning quvvati iymon salomatligidandir" kabi hikmatlar ham borki, ular yuqorida berilgan fikrlarimizning yorqin dalilidir.

"Nasr ul-laoliy"da farz va nafl namozlar xususida ham hikmatlar mavjud bo'lib, ularda kishining namozda erinchoqlik qilmasligi zarurligi hamda ayniqsa tungi namozlarning foydalari xususida mulohaza yuritiladi. Kishining namozda erinchoqlik qilishi iymonning zaifligidandir, tungi namozlar kunduzga husn bo'ladi, "tungi namozlar bilan qabringni munavvar et" kabi hikmatlarni fikrimizga dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Ma'rifat Rajabova "Nasr ul-laoliy" hikmatlari hamda "Nazm ul-javohir" ruboiylari g'oyaviy jihatdan "Qur'oni karim" oyatlaridan va hadisi sharifdan oziqlanganini aytib o'tadi<sup>59</sup>. Ushbu fikrga dalil sifatida iymon va namozning afzalliklarini bayon qiluvchi quyidagi oyatlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: "Alif. Laam. Miym. Bu kitobda shak-shubha yo'q, u taqvodorlarga hidoyatdir. Ular g'aybga iymon keltirurlar, namozni to'kis o'qirlar va Biz ularga bergan rizqdan nafaqa qilurlar. Va ular senga va sendan oldin nozil qilingan narsaga iymon keltirarlar va oxiratga aniq ishonarlar. Ana o'shalar, Robbilaridan bo'lgan hidoyatdadir va ana o'shalar, o'shalargina najot topguvchilardir (Baqara surasi, 1-5-oyatlar)"<sup>60</sup>.

Islom dinining uchinchi rukni ro'za tutish amali bo'lib, "Nasr ul-laoliy" asarida birgina hikmat ro'zaning mohiyatini ochishga xizmat qilsa-da, biroq biz undan teran g'oyalarni ilg'aymiz. Ya'ni, birinchidan, ro'za tutish farz amal

---

<sup>58</sup> O'sha manba, 136-b.

<sup>59</sup> Bu haqda qarang: Rajabova M. "Nazm ul-javohir" manbalari va badiiyati: Filol. fan. nomz. dis. ...avtoref. – Toshkent, 2006. – 10-b.

<sup>60</sup> Muxammad Yusuf Muxammad Sodiq. Tafsiiri Xilol. - Toshkent: Sharq, 2009. – 14-17-b.

bo'lsa, ikkinchidan u kishi salomatligining ham sababchisidir. Navoiy esa ushbu fikrlarga qo'shimcha sifatida ro'zaning inson ruhiyatini poklovchi omil ekanligini ham ta'kidlaydi:

124. Sihhat ul-badani fis-savmi (Badanning sihati - ro'zadan).

Doim tut o'zunga ro'zaning mehnatini-

Kim, ruhqa yetkurur safo davlatini,

Sihhat tilasang qilg'il aning niyatini-

Kim, ro'zada qo'ydilar aning sihatini<sup>61</sup>.

Bundan tashqari, "Nazm ul-javohir" asarida islom dininig to'rtinchi rukni bo'lgan zakot xususida, qolaversa, Allohdan qo'rqish hamda unga ibodat qilishning afzalliklari, tavakkal qilishning foydalari haqida, "Qur'oni karim"ning qalb shifosi ekanligi to'g'risida, nabiylarning oddiy insonlardan farqi hamda fiqh ulamolarining dinga zarurligi borasida, shukrning foydalari va oxirat g'amini yeyish to'g'risida bir qator hikmatlar mujassamlashganki, asar bizning din ahkomlarini tushunishimizda muhim manbadir, desak yenglishmaymiz. Xususan, hikmatlarning birida: "Bu dunyoni oxirat uchun sotib yubor", - deyiladi. Navoiy hikmatni keng ko'lamda talqin qilar ekan, uni mazmunan boyitadi, shu sababli ham g'oya teranlashadi. Ya'ni unda kishi bu dunyo zeb-ziynatlariga berilarkan, u o'ziga do'zax o'tini barpo qilishi aytiladi. Shu sababli ham, tarki dunyo qilishning imkoni bo'lmasa-da, hech bo'lmaganda dunyo hoyi-havasidan kechish, ya'ni uni oxirat uchun sotib yuborish zaruriyligi ta'kidlanadi.

15. Ba' ad-dunyo bil oxirati tarbahu (Bu dunyoni oxirat uchun sotib yubor, foyda ko'rasan).

Dunyo bila necha zebu oro qilmoq,

Ul zeb ila do'zax o'ti barpo qilmoq,

Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,

---

<sup>61</sup> O'sha manba, 158-b.

Uqbo bila xushdur ani savdo qilmoq<sup>62</sup>.

Bundan tashqari, asarda: “Oxirat savobi bu dunyo rohatidan yaxshiroq, baxtli odam oxirat g‘amini, baxtsiz odam bu dunyo g‘amini yeydi, jannat talabida belingni mahkam bog‘la” kabi hikmatlar ham bor bo‘lib, ular inson tuyg‘ularini tiyraklashtiradi va uni ikki dunyo saodatini o‘ylashga, uning uchun harakat qilishga majbur qiladi.

“Nasr ul-laoliy”da muqaddas “Qur’oni karim” haqida ham bir muncha hikmatlar berilgan bo‘lib, ularning birida: “Allohning kalomi qalblarning shifosidir”, - deyiladi:

192. Kalomullohi davo’ ul-qulubi (Allohning kalomi – qalblarning shifosidir.)

Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,  
Ne dardki, ul ko‘ngli aro hamroh erur,  
Qur’onni tilovat etsun ar ogoh erur,  
El ko‘ngliga chun davo kalomulloh erur<sup>63</sup>.

Hikmat va ruboiydan ko‘rinib turibiki, islom dinining muqaddas manbasi bo‘lmish “Qur’oni karim” oyatlari nafaqat din ahkomlarini tushunishimizda va anglashimizda, balki ko‘ngil xotirjamligiga erishishimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida “Nasr ul-laoliy” hikmatlari va “Nazm ul-javohir” ruboiylarining “Qur’oni karim” va hadisi sharifdan oziqlanib bitilganini aytib o‘tgan edik. Diniy mavzulardan yana biri bo‘lmish Allohga tavakkalning afzalliklari xususida ham ushbu fikrimizga dalil keltirishimiz mumkin: “Ular, itoat, derlar. Huzuringdan chiqqach esa, bir toifalari aytganingdan boshqaga xufyona til biriktirarlar. Alloh xufyona til biriktirgan narsalarini yozib qo‘yadir. Bas, ulardan yuz o‘gir va Allohga tavakkal qil. Vakillikka Allohning o‘zi kifoya qilur” (Oliy imron surasi 81-oyat)<sup>64</sup>.

---

<sup>62</sup> O’sha manba, 139-b.

<sup>63</sup> O’sha manba, 170-b.

<sup>64</sup> Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Тафсири Ҳилол. - Тошкент: Шарқ, 2009. – 585-б.

Hikmatlarning birida ham ayni shu ma'noga yaqinlikni kuzatamiz. Unda aytiladiki: "Taqvodordan ham ko'ra Allohga tavakkal qilguvchilarning qadri baland bo'ladi". Hazrat Navoiy ritorik so'roqlar yordamida, ayni shu mazmunni talqin etadi:

168. Ala qadr il-muttaqina va ala qadr il-mutavakkilina (Taqvodordan ham ko'ra Allohga tavakkal qiluvchilarning qadri ko'prak.)

Ne bo'lg'usidur, ahli tajohul qadri,  
Yo zumrai a'vonu takosul qadri,  
Yo'q dayrda arbobu tag'oful qadri,  
Behad bo'lur ashobi tavakkul qadri<sup>65</sup>.

"Nasr ul-laoliy"da diniy mavzularga bag'ishlangan hikmatlar ellikka yaqinni tashkil qiladi. Bundan tashqari, asarda ijtimoiy mavzularda ham bir qator hikmatlar borki, ularning yaratilganiga qariyb o'n besh asr bo'lsa hamki, hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shulardan biri do'stlik mavzusidir.

Do'stlik mavzusi millat tanlamaydi, xalq tanlamaydi. U qalb tanlaydi, vafo tanlaydi xolos. O'zbek xalqida shunday maqol bor: "Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi". Ayni shu maqolga mazmunan yaqin bo'lgan hikmatni "Nasr ul-laoliy" asarida uchratamiz. Unda: "Falokat yetganda yordamga kelgan kishi – birodaring", - deyiladi. Hazrat Navoiy ushbu hikmatni talqin qilarkan, u hammani ham qardosh, ya'ni do'st deyish nojoiz ekanini aytib, davlat ko'pligida qo'ldosh bo'lganlarni emas, balki aksincha, qattiq damlarda vafo ko'rsatgan kishilarni do'st bilish kerakligini ta'kidlaydi.

2. Ahu-ka man va asoka fil-shiddati (Falokat yetganda yordamga kelgan kishi – birodaring.)

Qardoshing emas ulki qo'yub bosh sanga,  
Davlat chog'i qilg'ay o'zni qo'ldosh sanga-

---

<sup>65</sup> O'sha manba, 165-166-b.

Kim, qildi qatig'lig'da vafo fosh sanga,  
U bo'ldi haqiqat ichra qardosh sanga<sup>66</sup>.

Do'stlik mavzusiga oid o'nga yaqin hikmatlar bo'lib, ular: "Do'stlarning yaxshilikka boshlagani yaxshiroqdir, kishining do'sti uning diniga dalildir, do'stning xolisligini va'dasiga amal qilishidan bil, do'stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi" kabilardirki, bular do'stlik tuyg'usining muqaddas tuyg'u ekanini anglatish bilan birga uning shartlariga ham amal qilish zarurligini ko'rsatadi.

"Nasr ul-laoliy" da ilgari surilgan mavzulardan yana biri bu suhbatdosh tanlash xususida bo'lib, ushbu mavzudagi hikmatlar ham o'nga yaqinni tashkil qiladi. Ularda insonning qanday kishilar bilan suhbatdosh bo'lishi yoki qanday kishilar bilan hamsuhbat bo'lmasligi kerakligi to'g'risida mulohazalar bayon qilinadi. "Kishining hamsuhbati o'zi kabi bo'ladi, yaxshi hamsuhbat g'animatdir, o'lim g'ami qalbing sevmagan kishi bilan hamsuhbat bo'lishdan yaxshiroqdir, yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lish yomonlikdan qaytaradi" kabi hikmatlar fikrimizni dalillaydi.

"Nasr ul-laoliy" hikmatlari va "Nazmul-javohir" ruboiylarida ota-ona va farzandlar munosabati xususida qimmatli fikrlarni uchratamiz. Ushbu mavzuga bag'ishlangan hikmatlarda ota-onaning vazifalari va farzandning burchlari yuzasidan o'gitlar bayon qilinadi:

89. Ro'a aboka yuro'uka-biuka (Otangga rioyat qil – bolangdan qaytadi.)

Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,  
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,  
Har kimki, atog'i ko'p rioyat qilg'ay,  
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay<sup>67</sup>.

Bundan tashqari, asarda: "Bolalaringni tarbiya qil - ularga foyda keltirasan, ota-onaga mehribonlik merosdir" kabi hikmatlar ham borki, ular

---

<sup>66</sup> O'sha manba, 137-b.

<sup>67</sup> O'sha manba, 151-b.

ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar borasida qimmatli pand-nasihatlar, desak yanglishmaymiz.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlarida odob-axloq mezonalariga doir bir qator masalalar o'z yechimini topgan bo'lib, ularda odobning mol-dunyodan afzalligi, muloyimlik, kamtarinlik, tavoze'lilikning foydalari va hamda xayoning zarurligi kabi g'oyalarni o'zida aks ettirgan o'gitlarni uchratamiz: “Kishining odobi – uning boyligidan yaxshidir, kishining kamtarinligi unga baxt keltiradi, kishining husni muloyimligidadir, kishining yumshoq fe'lli bo'lishi uning madadkoridir, kishining hayosi uning pardasidir, tavoze'li kishi ulug'dir” kabi bir qator hikmatlar fikrimizga guvohlik beradi. “Nasr ul-laoliy” hikmatlarida odob-axloq me'yorlari xususida so'z borarkan, til odobi to'g'risida batafsil to'xtalmoq joiz.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlarining yigirmadan ortig'i til odobiga bag'ishlangan bo'lib, ularda tilga ehtiyot bo'lish, so'zni qisqa – lo'ndasini gapirish, sukut foydalari, to'g'ri so'zlikning afzalliklari xususida nasihatlar bayon qilinadi. Hikmatlarning birida: “Insonga balo tildan kelur”, - deyiladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga bir qator yozma manbalarimizda ham til odobiga bag'ishlangan qimmatli fikrlarni uchratamiz. Fikrimizning dalili sifatida Adib Ahmad Yugnakiyning “Xibat ul-haqoyiq” asaridan quyidagi misolni keltiramiz:

So'zing achchiq, ezma tilingni tiyiq tut,

Achchiq (erk berilgan) til bir kuni boshinga yetadi<sup>68</sup>.

Ko'rinadiki, keltirilgan misol yuqorida tilga olganimiz: “Insonga balo tildan kelur” - hikmati bilan g'oyaviy jihatdan bir nuqtani tashkil qilmoqda.

Demak, til odobi hamisha muhim muammolar sirasidan bo'lib kelar ekan, “Nazm ul-javohir”da yuqoridagi fikrlarning mazmun va g'oya jihatidan takomillashganini, kengayganini kuzatamiz:

---

<sup>68</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 338-б.

19. Balo ul-insoni min al-lisoni (Insonga balo tildan kelur.)

So'zidin kishikim g'amu balo hosildur,  
Har nuktada tili desa balo hosildur,  
Besirfa degan kishiga tili qotildur,  
Alqissaki, kimsaning balosi tilidur<sup>69</sup>.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida shunday jummalarni uchratamiz:

Inson o'z so'zini tili orqali so'zlaydi,  
So'zi yaxshi bo'lsa, yuzi suvlanadi (ya'ni obro' qozonadi)<sup>70</sup>.

"Nasr ul-laoliy"da ham xuddi shu fikrga mantiqiy uyg'un bo'lgan hikmatni uchratamiz. Unda: "Yuz sofliги - to'g'ri so'zlikdandir", - deyiladi. Ayon bo'lmoqdaki, bu ikki mulohazaning g'oyaviy markazi bir – to'g'ri so'zlikning afzalligi targ'ib qilinmoqda. Ruboiyda esa hikmatga yetib kelgunga qadar ushbu g'oyaning mazmunan boyitilganini kuzatamiz. Ya'ni Hazrat Navoiy egri so'zlovchining to'g'ri yo'ldan ozishi va to'g'ri so'zlikning quvonchi cheksiz bo'lishini qo'shimcha sifatida ta'kidlaydi:

222. Nazrat ul-vajhi fis-sidqi (Yuz sofliги – to'g'ri so'zlikdandir.)

Har kimgaki egrilikta ovoza durur,  
Tuz jodda ichra yo'lidin ozadurur,  
Tuzlukta tarab behadu andoza durur,  
Kim rost durur, yuzi aning toza durur<sup>71</sup>.

Bundan tashqari, to'g'ri so'zlik xususida: "Kishining erkin bo'lishi to'g'ri so'zligi sharofatidandir, kishi to'g'ri so'zlik bilan ulug'lar darajasiga erishadi" kabi hikmatlar mavjud.

Til odobining muhim tarmoqlaridan yana biri bu sukut saqlashlik bo'lib: "Til sukuti inson salomatligi, nodonnig sukuti ayblariga pardadir,

---

<sup>69</sup> O'sha manba, 139-b.

<sup>70</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 25-б.

<sup>71</sup> O'sha manba, 175-b.

sukut saqlagan odam so'ng nadomat qilmaydi" kabi hikmatlar sukutning afzaliklarini targ'ib etadi. Qolaversa, "Nasr ul-laoliy"da kam so'zlash to'g'risida: "So'zning yaxshisi qisqasidir, uzun gap nuqsonli gapdir"; Yumshoq so'zli bo'lish zarurligi xususida: "Yumshoq so'z qalblarni mahbub qiladi, so'zingni yumshoq qil sevimli bo'lib qolasan" kabi hikmatlar mavjud bo'lib, ular kishini insoniyatning ulug'likka yetishishiga sababchi bo'lgan so'z ne'matidan to'g'ri foydalanishga da'vat etadi.

Insoniyat yaralibdiki, hamisha ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash borishi ayon hodisalardandir. Yaxshilikning cheki yo'q, chegarasi mavjud emas.

"Nasr ul-laoliy"da ham yaxshilik qilishning afzalliklari xususida bir qancha hikmatlar borki, ularda yaxshilikning qoidalari, mehr-muruvvatli bo'lishning foydalari, saxiylik, ehson va sadaqa qilishning afzalliklari to'g'risida bir qator nasihatoma o'gitlar berilgan. Xalqimizda shunday maqol bor: "Yaxshilik qil daryoga tashla, baliq bilmasa xoliq biladi". "Nasr ul-laoliy" hikmatlarining birida ham ayni shu mazmunning akslanganligiga guvoh bo'lamiz. Hikmatda: "Ezgulik qil, ammo uni minnat qilish bilan yo'q qilma", - deyiladi. Demak, biz har qanday ezgulikni ham yaxshilik sirasiga kiritmaymiz. Xolislik bilan qilingan yaxshilikkina yaxshilik maqomida bo'ladi: 20. Barrik lo tubtilhu bil-manni (Ezgulik qil, ammo uni minnat qilish bilan yo'q qilma.)

Juz judu saxo uyini manzil qilma,  
Imsokni saxo yuziga hoyil qilma,  
Qil yaxshiliqu demakni doxil qilma,  
Minnat bila yaxshiliqni botil qilma<sup>72</sup>.

Asarda yaxshilik xususida: "Yaxshilik bashoratini ber, uni hadya etgan bo'lasan, o'z o'rnida qilinmagan yaxshilik zulm bilan barobardir"; Muruvvat

---

<sup>72</sup> O'sha manba, 140-b.



haqida: “Muruvvat qiyinchiliklarni to’sadi, muruvvatsiz kimsada din ham yo’q”; Sadaqa xususida: “Nimaiki topsang, sadaqa qil, minnat bilan qilingan sadaqa gunohi savobidan ko’proq bo’ladi”; Saxiylik haqida: “Kishilarni ziyorat qilish uning saxovatiga qarab bo’ladi, saxiylikning soyasi keng” kabi hikmatlar borki, ularning soni o’n beshga yaqinni tashkil qiladi.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlarida sabr va qanoat xususida ham bir qator o’g’itlarni uchratamiz. Xususan, hikmatlarning birida: “O’zingga sabrdan keyin zafar kelishini bildirib qo’y”, - deyiladi. Hazrat Navoiy ushbu hikmatni talqin qilar ekan, besabrlilikning yomon illat ekanini ham ta’kidlab o’tadi:

12. Bashshir nafsaka biz-zafari ba’d as-sabri (O’zingga sabrdan keyin zafar kelishini bildirib qo’y.)

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,  
Besabrlig’in aning sharorat angla,  
Ish sabr sori anga ishorat angla,  
Sabrni zafar sori bashorat angla<sup>73</sup>.

Asarda: “Qanoatli kishida g’am bo’lmaydi, sabr sohibi albatta o’z murodiga yetadi” kabi o’nga yaqin hikmatlarni uchratamizki, ular sabr va qanoat kishini ko’ngil xotirjamligiga erishtiruvchi eng muhim fazilat ekanidan darak beradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida shunday jummalarni uchratamiz:

Zakovat qayerda bo’lsa, ulug’lik bo’ladi,  
Bilim kimda bo’lsa, buyuklik oladi<sup>74</sup>.

Demak, aql-zakovat kishini buyuklik sari eltar ekan, “Nasr ul-laoliy” hikmatlari va “Nazm ul-javohir” ruboiylari ham ushbu g’oyani chetlab o’tmagan. Fikrimizning yorqin dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

118. Shammatun minal-ma’rifati xayrun min kasir il-amali (Ko’p toatdan oz

---

<sup>73</sup> O’sha manba, 138-b.

<sup>74</sup> Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 22-б.

ma'rifat yaxshi.)

Irfon ahlig'a el niyozi yaxshi,  
Ta'zim ila lutfi dilnavozi yaxshi,  
Gar ma'rifat o'lsa chora sozi yahshi,  
Toat ko'pidin, ma'rifat ozi yaxshi<sup>75</sup>.

“Nasr ul-laoliy”da ilm-ma'rifat o'rganishning foydalari xususida bahs yurituvchi hikmatlar soni o'nga yaqinni tashkil qilib, ularda ilmning darajasi va zavoli nimada ekanligi uqtiriladi: “Ilmning darajasi sifatdadir, ilmning zavoli maqtanishdadir, ilm majlisi jannat bog'chalariga o'xshaydi, oqil kishiga faqirlik yo'q” kabi hikmatlar fikrimizning dalilidir.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlari mavzu jihatidan keng ko'lamga egaligi bilan ahamiyatlidir. Unda yuqorida tilga olganlarimizdan tashqari, asllik va mardlikning ulug'lanishi, qalban va ruhan pok insonlarning qadrlanishi, umr yo'llaridan to'g'ri foydalanish, qarilikning qadriga yetish kabi g'oyalarni o'zida mujassam etguvchi hikmatlar ham borki, ular insonning o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda dunyo va zamon kishilari xususida ham bahs yuritiladi. Xususan, hikmatlarning birida: “Dunyo burchaklari motamlarga to'ladir”, - deyiladi. Navoiy ayni shu hikmatni talqin etar ekan, dunyo nafaqat motamlarga, balki har biri yuzlab baloni mujassamlashtirgan g'amlarga ham to'la ekanini aytadi:

99. Zavoyo-ad-dunyo mashhunatun bi-r-razoyo (Dunyo burchaklari motamlarga to'ladir.)

Gardunki, aning javfida mamlu' g'amdur,  
Har bir g'amida yuz ibtilo mudg'amdur,  
Dunyodaki, el navhasi zeru bamdur,

---

<sup>75</sup> O'sha manba, 157-b.

Har zoviyasi aning to'la motamdur<sup>76</sup>.

Bundan tashqari: "Bu zamonning odamlari ayb qidiruvchi josuslardir, dunyo ayblari unda qolmasliging uchun senga yetarlidir" kabi hikmatlar dunyoning bebaqoligini, insonning o'tkinchiligini targ'ib etadi. "Nasr ul-laoliy" hikmatlarining barqarorligini ta'minlovchi sabab bu Hazrat Alining ayni o'sha hikmatlarga muvofiq hayot kechirganligidadir, desak yanglishmagan bo'lamiz. Hikmatlarda nafs tarbiyasiga oid bir qator o'g'itlar mavjud bo'lib, ularning birida: "Nafsingga qarshi tur, shunda dam olasan", - deyiladi. Ayni shu hikmatning amaliy namunasini Hazrat Ali haqidagi rivoyatlardan anglaymiz: "Abu Nu'aym Abdulloh ibn Sharikdan, u bobosidan rivoyat qiladilar: "Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuga folunj keltirilda va oldiga qo'yildi. Bas, u : "Albatta, sening hiding yoqimli, ranging go'zal, ta'ming yoqimli, lekin men nafsimni o'rganmagan narsasiga o'rgatishni xohlamayman", dedi""<sup>77</sup>.

"Nafsinga bezak berma – uni charchatasan, nafsing g'laba qilsa, Haq yo'lini tut, nafsingdan qochishing sherdan qochishingdan ko'ra ko'proq foyda beradi" kabi hikmatlar ham insonni nafs yomonligidan, unga berilishdan qaytarishga xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrlarimizning davomi sifatida Ali roziyallohu anhuning xalifalik davridagi quyidagi rivoyatni keltiramiz: "Imom Bayhaqiy, Ibn Asokir va Ibn Abdulbarr quyidagilarni rivoyat qiladilar: "Ali roziyallohu anhuga Asfihondan mol keldi. U kishi uni yetti ulushga bo'ldi. Bir dona non ortib qoldi. Uni yettiga bo'lib, har ulushga bir burdadan qo'ydi. So'ngra qism amirlarini chaqirdi. Ularning orasida qur'a tashlab, kimga avval berishni aniqladi""<sup>78</sup>.

"Nasr ul-laoliy"da ilgari surilgan masalalardan yana biri podshohlar haqidagi mavzu bo'lib, hikmatlarning birida: "Shohlarning davlati adolat

---

<sup>76</sup> O'sha manba, 153-b.

<sup>77</sup> Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Ҳадис ва ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2011. - 261-6.

<sup>78</sup> Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Ҳадис ва ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2011. - 278-6.

uzradir”, - deyiladiki, yuqorida berilgan rivoyat ayni shu hikmatning amaliy namunasi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Hazrat Navoiy ayni shu fikrga qo‘shimcha sifatida shohlarning dabdaba-yu shuhrati, iqbol-u shavkati hamda el ichida omon bo‘lishi ham adolat tufayli ekanini ta’kidlaydi.

76. Davlat ul-muluki fil-adli (Shohlarning davlati adolat uzradir.)

Shah ubbahutu hashmatidur adli bila,  
Iqbol dog‘i shavkat erur adli bila,  
Olam eli amniyatidur adli bila,  
Sultonlarning davlatidur adli bila<sup>79</sup>.

“Nasr ul-laoliy” hikmatlari va “Nazm ul-javohir” ruboiylari insonga xos bo‘lmagan noaxloqiy illatlarni qoralab bitilganligi bilan ham muhimdir. Shulardan biri gunoh amallarning qoralanishi bo‘lib, ularda makruh amallarning va kufr keltirishning zararlari, gumrohlik va notavonlikning salbiy oqibatlari, isyonchi va botil kishilarning halokatlari xususida bir qator hikmatlar beriladiki, ularning soni o‘n beshga yaqinni tashkil qiladi: “Makruh ishni rad etishda g‘ofillik qilsang u ko‘payib boraveradi, isyon qiluvchining o‘z isyoni halok qiladi, avon kishining zohidligi gumrohlikdir, ne‘matga kufr qilish - uni zoyil qiladi”.

“Nasr ul-laoliy” asarida zolimlar va zulmning salbiy oqibatlarini qoralovchi hikmatlar ham mavjuddir. Hikmatlarning birida: “Zolimning umri qisqa bo‘ladi”, - deyiladi. Hazrat Navoiy ayni shu hikmatni talqin etar ekan, zolim kishi el nasibasini qirqib, ularga jafo qilgani bilan foyda ko‘rmasligini aytadi. Chunki zolimning umr soyasi qisqa bo‘ladi:

155. Zillu umr iz-zolimi qasirun (Zolim umrining soyasi qisqa bo‘ladi.)

Zolimki, shior etti jafo poyasini,  
O‘z voyasin istab oldi el voyasini,  
Qaydin topqay hayot sarmoyasini,

---

<sup>79</sup> O‘sha manba, 149-b.

Haq ayladi qisqa umrin soyasini<sup>80</sup>.

Asarda zolimlikning va zulmning qoralanishiga oid hikmatlar soni oltitani tashkil qiladi: “Zolimning zulmi uni halokatga yo‘llaydi, zolimning uqubati o‘limining tezkorligidir” kabi hikmatlar zolimlikning ayanchli oqibatlaridan darak beradi. Hazrat Ali noaxloqiy mavzulardan yana biri bo‘lgan hasad va hasadgo‘ylikning qoralanishiga ham ayricha e‘tibor bergan. Hikmatlarning birida: “Hasadgo‘yga uning hasadi (halok bo‘lishi uchun) kifoyadur”, - deyiladi. Hazrat Alisher Navoiy ushbu halokatning natijalarini quyidagicha bayon qiladi: ya‘ni, muallif hasadgo‘yga uning hasadi jazo ekanini, jazo bo‘lganda ham bu jazo uning yomon taqdiri ekani, taqdir bo‘lganda ham bir balo, balki dardi bedavo ekanini ta‘kidlaydi:

195. Kafo lil-hasudi min hasudihi (hasadgo‘yga uning hasadi (halok bo‘lishi uchun) kifoyadur.)

Har kimki hasud erur sazodur hasadi,  
Haqdin bo‘lg‘on yamon qazodur hasadi,  
O‘z jonig‘a yetg‘uncha balodur hasadi,  
Balkim anga dardi bedavodur hasadi<sup>81</sup>.

Bundan tashqari, “Nasrul-laoliy” asarida noaxloqiy illatlardan yomonlikning qoralanishi va yomon kishilarning qanday bo‘lishi xususida: “Yomon xulqdan xalos bo‘lish qiyin, yomonga yaqin bo‘lgan ish yomon ishdir, kishilarning yomonrog‘i xalqdan o‘zini olib qochuvchisidir”; Kishining dushmani qanday bo‘lishi xususida: “Seni yomonlikka boshlagan kishi dushmaningdir, dushmanning ustidan g‘alaba qozonishing osondir”; Hirsning kishini halokatga yetaklashi borasida: “Hirs yetkazgan rahnani faqat tuproq to‘ydiradi, kishiga alam hirsdan yetadi, hirs bandasi halokat sari ketayotganini bilmaydi”; Baxillik, xudbinlik, takabburlikning eng yomon illatlar ekani haqida: “Uch narsa halokatga olib keladi: baxillik, xudbinlik va

---

<sup>80</sup> O‘sha manba, 163-b.

<sup>81</sup> O‘sha manba, 170-b.

takabburlik, baxilning oltini foydasiz toshdan o'zga narsa emas, dunyo bilan faxrlanish kibrdandir, kishining xudbinligi uni halok qiladi" kabi hikmatlar ham borki, ular o'zining didaktik mohiyati bilan kishi ruhiyatini poklashga va amalini to'g'ri ishlarga yo'llashga xizmat qiladi.

"Nasr ul-laoliy" hikmatlari va "Nazm ul-javohir" ruboiylarini g'oyaviy xususiyatlari va mavzular ko'lamidan shunday xulosalash mumkinki:

1. "Nasr ul-laoliy" hikmatlari mavzularining rang-barangligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va u ikki katta guruhga: diniy va ijtimoiy mavzularga bo'linadi. "Nazm ul-javohir" ruboiylari esa ularni mavzu va g'oya jihatidan mazmunan keng ko'lamda talqin qiladi.

2. "Nasr ul-laoliy" hikmatlari "Qur'oni karim" va hadisi sharifdan oziqlangan bo'lib, ularda iymonning zaifligi va mustahkamligiga sabab bo'luvchi omillar xususida, namoz, ro'za, zakotni ado etishning foydalari haqida, Allohga tavakkal qilish, ne'matlariga shukr keltirish, undan qo'rqish va unga ibodat qilishning afzalliklari to'g'risida, "Qur'oni karimning" qalb shifosi ekani borasida, bu dunyoning zeb-ziynatiga berilmaslik va oxirat haqida qayg'urishlikning ijobiy oqibatlari haqida bir qator o'gitlar berilgan bo'lib, ular insoniyatga din ahkomlarini o'rgatadi va uni ikki dunyo saodati uchun teng harakat qilishga da'vat etadi.

3. Diniy mavzulardagi hikmatlarda gunoh amallarning zararli oqibatlari xususida bir qator o'gitlar ham beriladiki, ularda makruh ishlarni tark etishning foydalari, Allohga isyon qilish va uning ne'matlariga kufr keltirishning salbiy oqibatlari haqida bahs-munozaralar yuritiladi.

4. "Nasr ul-laoliy" hikmatlarida ijtimoiy mavzular ham qalamga olingan bo'lib, ular axloqiy fazilatlarning ulug'lanishi va noaxloqiy fazilatlarning qoralanishi bilan didaktik ahamiyat kasb etadi.

5. Hikmatlarda do'stlar va birodarlarni tanlash, ularni ziyorat qilish hamda ularga vafo ko'rsatish, qolaversa, yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lish

kabi g'oyalarni o'zida mujassam etgan do'stlik mavzusiga alohida e'tibor qaratiladi va bunday o'gitlar kishilarni do'st tanlashda hushyorlikka chorlaydi.

6. "Nasr ul-laoliy"da ota-onaning vazifalari va farzandlarning burchlari to'g'risida ham bir qator hikmatlar berilgan bo'lib, ularda ota-onalarni o'z farzandlariga chiroyli tarbiya berishga hamda shunga munosib ravishda farzandlar ham o'z ota-onalariga mehribon bo'lishlariga da'vat etiladi.

7. Hikmatlarda ulug'langan axloqiy fazilatlardan biri bu odob-axloq masalalari bo'lib, unda muloyimlik va kamtarinlik, odobli va yumshoq fe'lli bo'lishlik, hayo va tавozelilik hamda sabr-qanoat kabi husni xulqlar ulug'lanadiki, bular inson uchun zaruriy fazilatlardan hisoblanadi.

8. Odob-axloq masalalarining muhim tarmoqlaridan biri bu til odobi bo'lib, "Nasr ul-laoliy" hikmatlarida kishilarni to'g'ri va yumshoq so'zli bo'lishga, so'zning qisqa va lo'ndasini gapirishga, kezi kelganda sukut saqlashga undovchi bir muncha nasihatlar aytilganki, ular insonni bashariyat ulug'ligining sababchisi bo'lgan so'z ne'matidan to'g'ri va unumli foydalanishga chaqiradi.

9. "Nasr ul-laoliy" asarida kishilarni sadaqa va ehson qilishga, saxiylik va oliy himmatlilikka, mehr-muruvvat va ezgulikka chorlovchi bir qator hikmatlar bor. Ular insoniyat bezagi bo'lgan yaxshi amallarning ulug'lanishida va bu ulug'likning bashar qalbiga singdirilishda muhim vosita hisoblanadi.

10. "Nasr ul-laoliy" o'gitlarida zamon kishilari va dunyo to'g'risida, asllik va mardlikning hamda hunar egallashning foydalari haqida ham bir muncha hikmatlar mujassamlashgan.

11. Asarda podshohlarni adolatli va xalqparvar bo'lishga chaqiruvchi hikmatlar ham berilgan. Bunday hikmatlar zamon shohlarini o'z mavqeidan to'g'ri va adolatli foydalanishlikka chorlaydi.

12. "Nasr ul-laoliy" hikmatlarida va "Nazm ul-javohir" ruboiylarida noaxloqiy

illatlar qoralanadi. Ular yomonlik va hasadgo'ylik, zolimlik va zulm, nafs va hirs, xudbinlik va kibr hamda baxillik kabilar bo'lib, ushbu mavzular bo'yicha berilgan hikmatlar insonni to'g'ri yo'ldan adashmaslikka, qo'li ochiq ya'ni saxiy bo'lishga o'zgalarga hasad, zulm va yomonlik qilmaslikka nafs, hirs va kibrga berilmaslikka targ'ib etadi.

## **2.2. “Nazm ul-javohir” ruboiylari badiiyati**

Hazrat Ali “Nasr ul-laoliy” hikmatlari nazmiy talqini bo'lgan Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” ruboiylari o'zining badiiy nafosati hamda musiqiy ohangdorligi bilan o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Shu o'rinda aytish mumkinki, Yoqubjon Is'hoqov o'zining “Navoiy poetikasi” asarida Hazrat Alisher Navoiyni turkiy adabiyotdagi ruboiy janrining ilk asoschilaridan deya ta'kidlaydi: “Navoiy ruboiy janrida qalam tebratganda o'zbek adabiyotida bu janr bilan bog'liq an'analar mavjud emas edi. Shuning uchun ham Xondamir “Makorim ul-axloq”da shunday yozadi: “Ko'rinishicha, ul hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan, har to'rt misrai qofiyadosh va radifdosh bo'lganiga nima yetsin”

Bu ma'lumot ikki muhim masalaga aniqlik kiritishga yordam beradi. Biri Navoiyning turkiy tildagi ruboiy janrining shakllanishida tutgan roli, ikkinchisi esa Navoiy ruboiylari poetikasidagi o'ziga xoslik masalasi”<sup>82</sup>.

Demak, “Nazm ul-javohir” asari ruboiylari turkiy ruboiychilikning yuqori bosqichga chiqishida yetakchi manba hisoblanar ekan, uning badiiyati xususida to'rt muhim xususiyatni ta'kidlab o'tish joiz:

1. Asar muqaddimasi va asosiy qismida berilgan ruboiylarning barchasi to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lgan taronaiy ruboiylardir;
2. Ushbu ruboiylarning aksariyatida radif ishtirok etadi;
3. “Nazm ul-javohir” ruboiylari vazn jihatidan ham rang-baranglikka ega;
4. “Nazm ul-javohir” asari ruboiylarida bir muncha she'riy san'atlar

---

<sup>82</sup> Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. –Ўзбекистон ССР: “Фан” нашриёти, 1983. – 78-79-б.



qo'llanganki, ular ushbu janr shakliy va ma'naviy nafosatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Nazm ul-javohir” ruboiylari 255 tani tashkil etar ekan, ularning 210 tasi radifli bo'lib, shulardan 182 tasida radif bir so'z bilan, 28 tasida ikki so'z bilan ifodalangan. Qolgan 45 ta ruboiyda radif ishtirok etmagan. “Nazm ul-javohir” ruboiylari vazn jihatidan ham xilma-xil bo'lib, asarda bir, ikki, uch, hattoki, to'rt vaznli ruboiylarni ham uchratamiz, lekin shunu ham ta'kidlab o'tish kerakki, ruboiylarning ko'pchiligi hazaj bahrining axrab tarmog'ida bitilgan bo'lib, bu uning o'ynoqiligi, musiqiy ohangdorligi hamda o'qilishiga osonligi bilan izohlanadi. Xususan, quyidagi ruboiy hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida bitilgan:

40. Jud bimo tajidu sadaq al-amri (Nimaniki topsang sadaqa qil.)

Maydoni saxo ichra jalodat ko'rguz,  
Topqonni berur amrig'a odat ko'rguz,  
Buxl aylasa, nafsingg'a adovat ko'rguz,  
Har nimaki topilsa saxovat ko'rguz<sup>83</sup>.  
Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fa'  
- - v v - - v v - - - -

Biz yuqorida ruboiylarning she'riy san'atlar bilan ham muzayyanlashganini aytgan edik. Ayni shu fikrning dalilini: “Til sukuti – inson salomatligi” hikmatining talqini bo'lmish quyidagi ruboiyda uchratamiz. Ushbu ruboiy hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida bitilgan bo'lib, **nadomat** va **malomat** so'zlari tanosub san'atini hosil qilmoqdaki, bu asar ma'nosini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

113. Sukut ul-lisoni salomat ul-insoni (Til sukuti – inson salomatligi.)

Til ildomidin bo'lur g'aromat hosil,  
Yuz nav' **nadomatu malomat** hosil,

---

<sup>83</sup> O'sha manba, 143-b.

Oz soʻzlaganidin istiqomat hosil,

Sokitligidin vale salomat hosil<sup>84</sup>.

Mafʼulu mafoilun mafoiylun faʼ

- - v      v - v -      v - - -      -

“Nazm ul-javohir” ruboiylarida tazod sanʼatining ikki oʻrinda kelgan holatlarini ham uchratamiz. Quyidagi ruboiyda **koʻprak – ozroq, zohir – botin** soʻzlari tazod sanʼatini ifodalab, ayni shu qarshilantirish asar gʻoyasini ochishda muhim ahamiyat kasb etganini koʻramiz:

102. Ziynat ubotini xayrun min ziynat iz-zohiri (Botiniy husn zohiriy husndan yaxshiroqdir.)

Eykim, qilasen **jilvau ishrat** chogʻi **zeb**,

Mustahsan emas er kishining qilmogʻi **zeb**,

Gar boʻlsa ishing **koʻpragi** yo **ozrogʻi zeb**,

**Zohirdin** erur sutuda **botindogʻi zeb**<sup>85</sup>.

Mafʼulu mafoiyli mafoiylu faal

- - v      v - - v      v - - v      v -

Ushbu ruboiy hazaji musammani axrabi makfufi ajabb vaznida bitilgan. Shu oʻrinda aytish kerakki, radif vazifasini oʻtayotgan **zeb** soʻzi tanosub sanʼatini hosil qilishda ham ishtirok etmoqda. Yaʼni **jilva, ishrat, zeb** soʻzlari maʼno jihatidan bir-birlariga mutanosib boʻlib, asar mazmunini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

“Nazm ul-javohir” asarida ikki vaznda bitilgan ruboiylarni ham uchratamiz. Ularning koʻpchiligini hazaj baxrining axrabi maqbuz hamda axrabi makfuf tarmogʻida bitilgan ruboiylar tashkil qiladi. “Doʻstlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi”, hikmatining talqini boʻlgan 100-raqam ostida berilgan ruboiyning birinchi va toʻrtinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb hamda ikkinchi va uchinchi misralari hazaji

---

<sup>84</sup> Oʻsha manba, 156-b.

<sup>85</sup> Oʻsha manba, 154-b.

musammani axrabi makfufi ajabb vaznlarida bitilgan:

100. Ziyorat ul-habib il-harro' ul-muhabbati (Do'stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi.)

Har kimki **habibing** o'lsa evrul boshig'a,

Maf'ulu mafoilun mafoiylu faal

- - v v - v - v - - v v -

Mahv o'l yuzig'a, jonni fido qil qoshig'a,

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - v v - - v v - - v v -

Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig'a

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - v v - - v v - - v v -

Tajdidi **muhabbat** angla, bormoq qoshig'a<sup>86</sup>.

Maf'ulu mafoilun mafoiylu faal

- - v v - v - v - - v v -

Ushbu ruboiyda ishtiyoq san'atining ishtiroki ko'zga tashlanadi. O'zak jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan **habib** va **muhabbat** so'zlari ayni shu san'atni hosil qilmoqda.

149-ruboiyning birinchi, ikkinchi va uchinchi misralari hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall vaznida, to'rtinchi misrasi esa hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall vaznida bitilgan bo'lib, ushbu ruboiyda uchta san'at yonma-yon kelganiga guvoh bo'lamiz. Ular **jon**, **o'lim** tanosub san'ati, **do'st** – **dushman** tazod san'ati **toat**, **itoat** ishtiyoq san'ati kabilardir:

149. To'at ul-aduvvi halakun (Dushmanga itoat - o'limdir.)

Tut haq tarafi kasbi sanoat qilmoq,

Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fo'

---

<sup>86</sup> O'sha manba, 153-b.

- - v      v - - v      v - - -      ~

Haqdin neki yuzlansa, qanoat qilmoq,

Maf'ulu    mafoiylu    mafoiylun    fo'

- - v      v - - v      v - - -      ~

**Jon** topmoq erur **do'stg'a toat** qilmoq,

Maf'ulu    mafoiylu    mafoiylun    fo'

- - v      v - - v      v - - -      ~

**Dushmang'a o'lumdurur itoat** qilmog'<sup>87</sup>.

Maf'ulu    mafoilun    mafoiylun    fo'

- - v      v - v -      v - - -      ~

Biz yuqorida ikki vaznda bitilgan ruboiylarning ko'pchiligi hazaj bahrining axrabi maqbuz hamda axrabi makfuf shahobchalarida bitilganini aytib o'tdik. Lekin asarda axrab va axram tarmoqlarida bitilgan ikki vaznli ruboiylar ham bo'lib, ular ozchilikni tashkil qiladi. Xususan, 143-ruboiyning birinchi, ikkinchi uchinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb vaznida, to'rtinchi misrasi esa hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajabb vaznida bitilgan.

143. Tubo liman ro'ziqa bil-ofiyyati (Ofiyat ila rizqlantirilgan kishi qanday yaxshi!)

Dardig'a aningki haq davo qildi nasib,

Maf'ulu    mafoilun    mafoiylu    faal

- - v      v - v -      v - - v      v -

Maqsudini aylamak ravo qildi nasib,

Maf'ulu    mafoilun    mafoiylu    faal

- - v      v - v -      v - - v      v -

Ul kimsaga oyini xudo qildi nasib-

Maf'ulu    mafoilun    mafoiylu    faal

---

<sup>87</sup> O'sha manba, 162-b.

- - V V - V - V - - V V -

Kim, ofiyat ishin ango qildi nasib<sup>88</sup>.

Maf'ulun foilun mafoiylu faal

- - - - V - V - - V V -

“Nazm ul-javohir” asarida uch vaznda bitilgan ruboiylar ham uchraydi. Shuni ham aytish kerakki, bunday ruboiylarning deyarli barchasini axrab va axram shahabchasi vaznlarida bitilgan ruboiylar tashkil qiladi.

106. Su' ul-xulqi lo xalosa fiho (Yomon xulqdan xalos bo'lish qiyin.)

Ko'nglumni arit borcha **yomon** xislatdin-

Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fa'

- - V V - - V V - - - -

Kim, **yaxshi** qilig' dalil erur rahmatdin,

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - V V - V - V - - - -

**Badxo'qliq** ul **vahshat** erur **shiddatdin**-

Maf'ulun maf'ulu mafoiylun fa'

- - - - - V V - - - -

Kim, elga xalosliq yo'q ul **vahshatdin**<sup>89</sup>.

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - V V - V - V - - - -

Demak, ushbu ruboiyning birinchi misrasi hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida, ikkinchi va to'rtinchi misralari esa hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida, uchinchi misrasi hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar vaznida bitilgan. Ushbu ruboiyni badiiy jihatdan mukammal etgan omillardan yana biri bu unda tanosub va tazod san'atining ishtirok etishidir. Ya'ni **yomon** va **badxo'qliq**, **shiddat** va **vahshat** so'zlari tanosub san'atini, **yamon** va **yaxshi** so'zlari tazod san'atini

<sup>88</sup> O'sha manba, 161-b.

<sup>89</sup> O'sha manba, 154-155-b.

ifodalab, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Quyidagi ruboiy ham uch vaznda bitilgan bo'lib, unda ishtiyoq va tanosub san'atining ishtirokini ko'ramiz. Ruboiyning birinchi va to'rtinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb vaznida, ikkinchi misrasi hazaji musammani axrami ashtari makfufi ajabb vaznida, uchinchi misrasi esa hazaji musammani axrabi makfufi ajabb vaznida bitilgan. Bir-biri bilan o'zakdosh bo'lgan **hasud** va **hasad** so'zlari ishtiyoq san'atini, ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan **yamon**, **balo**, **hasad** so'zlari esa tanosub san'atini ifodalab kelmoqda:

195. Kafo lil-hasudi min hasudihi (hasadgo'yga uning hasadi (halok bo'lishi uchun) kifoyadur.)

Har kimki **hasud** erur sazodur **hasadi**,

Maf'ulu mafoilun mafoiylu faal

- - v v - v - v - - v v -

Haqdin bo'lg'on **yamon** qazodur **hasadi**,

Maf'ulun foilun mafoiylu faal

- - - - v - v - - v v -

O'z jonig'a yetg'uncha **balodur hasadi**,

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - v v - - v v - - v v -

Balkim anga dardi bedavodur **hasadi**<sup>90</sup>.

Maf'ulu mafoilun mafoiylu faal

- - v v - v - v - - v v -

Asarda to'rt vaznda bitilgan ruboiylarni ham uchratamiz. Xususan, 121-ruboiyning birinchi misrasi hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall, ikkinchi misrasi hazaji musammani axrami axrabi solimi azall, uchinchi misrasi hazaji musammani axrami ashtari solimi azall va to'rtinchi misrasi

---

<sup>90</sup> O'sha manba, 170-b.

hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall vaznlarida bitilgan.

121. Shart ul-ulfati tark ul-kulfati (Ulfatchilik sharti - kulfat yo'qligidir.)

Ulfat ishida erur taxalluf qilmoq,  
Mafulu mafoilun mafoiylun fo'  
- - v    v - v -    v - - -    ~  
Diljo'yluq aylarda tavaqquf qilmoq,  
Maf'ulun maf'ulu mafoiylun fo'  
- - -        - - v        v - - -        ~  
Ulfat shartini betaassuf qilmoq,  
Maf'ulun foilun mafoiylun fo'  
- - -        - v -        v - - -        ~  
Bilgilki, erur tarki takalluf qilmoq<sup>91</sup>.  
Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fo'  
- - v        v - - v        v - - -        ~

“Nazm ul-javohir” asarining muqaddima qismida keltirilgan ruboiylar ham asaosiy qismdagi ruboiylar kabi vazn tuzilishi va she'riy san'atlarning qo'llanilishi jihatidan rang-baranglik kasb etadi. Shuni ham aytish kerakki, muqaddimada berilgan 30 ta ruboiyning 26 tasi radifli bo'lib, shulardan 15 tasida radif bir so'z bilan, 11 tasida esa ikki so'z bilan ifodalangan, qolgan 4 tasida radif ishtirok etmagan.

Quyidagi ruboiyning radifi ikki so'zdan tashkil topgan bo'lib, hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb vaznida bitilgan:

**Rif'at aro favqi Arshi a'zam so'z emish,**  
**Jonbaxsh dami masihi Maryam so'z emish,**  
**Ma'ni duri anda barcha mudg'am so'z emish,**  
Ulkim anga **ma'ni** o'lmag'ay ham so'z emish<sup>92</sup>.  
Maf'ulu    mafoilun    mafoiylu    faal

<sup>91</sup> O'sha manba, 157-b.

<sup>92</sup> O'sha manba, 136-b.

- - V            V - V -            V - - V            V -

Ayni shu ruboiyda to'rtta she'riy san'at ishtirok etganiga guvoh bo'lamiz. Shularning birinchisi tanosub san'ati bo'lib, **rif'at, favq, arshi a'zam** so'zlari ushbu san'atni hosil qilmoqda, yana shuni ham aytish kerakki, ayni shu so'zlar vositasida tashbih san'atining ham yuzaga kelganini ko'ramiz. Tashbih san'ati ruboiyning birinchi va ikkinchi misralarida qo'llangan. Xususan, mushabbih **so'z**, mushabbihun bih **Arshi a'zam**, vajhi shabih **rif'at aro**, vositai tashbih **emish** kabi so'zlar bilan ifodalangan. Ikkinchi misrada esa, **so'z** mushabbihni, **Masihi Maryam** mushabbihun bihni, **jonbaxsh** vajhi shabihni, **emish** vositayi tashbihni hosil qilmoqda. Demak, bu ikki misrada ham, tashbihi mutlaqning ishtirok etganini ko'ramiz. Ushbu ruboiyda qo'llangan she'riy san'atlardan yana ikkitasi talmeh va takrir san'atlari bo'lib, **Masihi Maryam** so'zi talmeh san'atini ifodalasa, uchinchi misra boshida hamda to'rtinchi misra o'rtasida kelgan **ma'ni** so'zlari takrir san'atini yuzaga keltirmoqda. "Nazm ul-javohir" asari muqaddimasida uning asosiy qismidagi kabi ikki vaznli ruboiylarni ham uchratamiz. Xususan, quyida beriladigan ruboiyning birinchi misrasi hazaji musammani axrami axrabi makfufi ajabb hamda ikkinchi uchinchi va to'rtinchi misralari hazaji musammani axrabi makfufi ajabb vaznida bitilgan:

**Alloh, Alloh!** Bu dag'i inshomu ekin,

Maf'ulun maf'ulu mafoiylu faal

- - -            - - V            V - - V            V -

Yo ruhi qudus fayzidin iymomu ekin,

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - V            V - - V            V - - V            V -

**Insho demay anfosi Masihomu ekin,**

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - V            V - - V            V - - V            V -



Yo qudrati Allohu taolomu ekin<sup>93</sup>.

Maf'ulu mafoiylu mafoiylu faal

- - v    v - - v    v - - v    v -

Ushbu ruboiyda uchta she'riy san'at qatnashgan bo'lib, ular, mukarrar: **Alloh Alloh**, talmeh: **anfosi Masih**, ruju': **Insho demay anfosi Masihomu ekin kabilardir**.

Ikki vaznda bitilgan ruboiylardan yana biri quyidagi ruboiy bo'lib, uning birinchi, uchinchi va to'rtinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar, ikkinchi misrasi esa hazaju musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznda bitilgan. Ruboiyning badiiy jihatdan yana bir ahamiyatli jihati shundaki, unda ishtiyoq va tashbih san'atining ham ishtirokini ko'ramiz:

So'zdurki, nishon berur o'lukka **jondin**,

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - v    v - v -    v - - -    -

So'zdurki, berur **jong'a** xabar **jonondin**,

Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fa'

- - v    v - - v    v - -    -

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - v    v - v -    v - - -    -

Bilkim, guhare sharifroq yo'q ondin<sup>94</sup>.

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - v    v - v -    v - - -    -

Demak, jon va jonon so'zlari o'zakdoshlik kasb etib, ishtiyoq san'atini ifodalasa, so'zning gavharga o'xshatilishi tashbih san'atini hosil qilmoqda.

“Nazm ul-javohir” asari muqaddimasida uch vaznda bitilgan

---

<sup>93</sup> O'sha manba, 129-b.

<sup>94</sup> O'sha manba, 125-b.

ruboiylarni ham uchratamiz. Xususan, quyidagi ruboiy fikrimizni dalillaydi:

**Bir zarrani mehri zarfishon vasf etmish,**

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - v      v - v -      v - - -      -

**Bir qatrani bahri bekaron vasf etmish,**

Maf'ulu mafoilun mafoiylun fa'

- - v      v - v -      v - - -      -

**Bir xastani Isoyi zamon vasf etmish,**

Maf'ulu mafoiylu mafoiylun fa'

- - v      v - - v      v - - -      -

**Bir bandasin shohi jahon vasf etmish<sup>95</sup>.**

Maf'ulun maf'ulu mafoiylun fa'

- - -      - - v      v - - -      -

Ko'rinadiki, ushbu ruboiyning birinchi va ikkinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida, uchinchi misrasi hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar vaznida, to'rtinchi misrasi esa hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar vaznida bitilgan. Ruboiyni badiiy jihatdan yanada mukammal etgan xususiyat shundaki, unda uchta she'riy san'at qo'llangan bo'lib, ular muvozana, istiora hamda talmeh kabilardir.

Ma'lumki, she'r baytining har ikki misrasidagi so'zlar vazn jihatidan bir-biriga teng bo'lsa, muvozana san'ati hosil bo'ladi. Yuqorida berilgan ruboiyning birinchi bayti ayni shu xususiyatni o'zida aks ettirgani bilan diqqatga sazovordir. Ya'ni baytning birinchi misrasidagi **bir zarrani** so'zlari bilan uning ikkinchi misrasidagi **bir qatrani** so'zlari, **mehri** so'zi bilan **bahri** so'zi, **zarfishon** so'zi bilan **bekaron** so'zi vazn jihatidan teng bo'lib, muvozana san'atini hosil qilmoqda.

Ushbu ruboiyda boshdan oyoq istiora san'atining qo'llanilganiga

---

<sup>95</sup> O'sha manba, 133-b.

guvoh bo'lamiz. Ya'ni muallif birinchi misrada o'zini (Hazrat Alisher Navoiyni) bir **zarraga** o'xshatsa Husayn Boyqaroni **zar sochuvchi quyoshga (mehri zarfishon)** mengzaydi. Ikkinchi misrada muallif o'zini bir **qatraga**, Husayn Boyqaroni **nihojasiz dengizga (bahri bekaron)**, uchinchi misrada o'zini bir **xastaga**, Husayn Boyqaroni **Iso Masihga**, to'rtinchi misrada esa o'zini bir **qulga**, Husayn Boyqarona esa **jahon shohiga** o'xshatadiki, bularning barchasi istiora san'atining yuzaga kelishida muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ushbu ruboiyda talmeh san'ati ham ishtirok etgan bo'lib, **Isoyi zamon** birikmasi ana shu san'atni ifodalab kelmoqda.

Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, asar muqaddimasida berilgan ruboiylar asosiy qismda berilgan ruboiylarga nisbatan, badiiy san'atlar qo'llanilishi jihatidan mukammalraq hisoblanadi. Chunki ular falsafiy xarakterda bo'lishi bilan birga qisman tavsifiylikni ham (ba'zi o'rinlarda esa to'laligicha) o'zida mujassam etadi. Asosiy qismdagi ruboiylar esa diniy falsafiy hamda didaktik maqsadni ko'zda tutib bitilgan bo'lib, ularda tavsifiylik u qadar ko'zga tashlanmaydi. Tavsifiylikning muhim jihati shundaki, unda tashbihning barcha turlari, istiora, tanosub kabi ko'plab badiiy san'atlarni o'zida mujassam etadi.

Xulosa qilib aytganda:

1. Hazrat Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari turkiy ruboiychilikning shakllanishida muhim manba vazifasini o'tagan bo'lib, har to'rtala misraning qofiyadosh bo'lishi bilan, qolaversa ularning ko'pchiligini bir va ikki so'zli radiflar tashkil qilishi bilan, vazn jihatidan rang-barangligi hamda ularda bir qancha she'riy san'atlarning qo'llanilishi bilan diqqatga sazovordir.
2. "Nazm ul-javohir" asari muqaddimasida va uning asosiy qismida bir, ikki, uch va hatto to'rt vaznda bitilgan ruboiylarni uchratamiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ularning ko'pchiligini hazaj baxrining axrab shahobchasi vaznlarida bitilgan ruboiylar tashkil qiladi (ko'proq bir vaznli ruboiylar

nazarda tutilmoqda).

3. "Nazm ul-javohir" asari muqaddimasidagi hamda uning asosiy qismidagi ruboiylarning badiiy mukammallik jihatidan muhim xususiyati shundaki, ularda tashbih, tanosub, talmeh, tazod, mukarrar, takrir, muvozana, istiora, ishtiyoq kabi bir qator she'riy san'atlar qo'llangan bo'lib, ular asar badiiy nafosatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

## **XULOSA**

Biz “Nazm ul-javohir” asarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Hazrat Alisher Navoiyning Hazrat Ali hikmatlari nazmiy talqini bo‘lgan “Nazm ul-javohir” asari o‘zining didaktik mohiyati bilan buyuk istiqbol sari odimlayotgan istiqlool davri yoshlarini tarbiyalashda muhim manbalar sirasidan hisoblanadi.
2. Boshqa asarlardan farqli o‘laroq, “Nazm ul-javohir” asarida Navoiy so‘zga ko‘proq falsafiy jihatdan yondashadi hamda so‘zdan so‘zning ham farqi bor ekanini ta’kidlab, uni uch guruhga tasniflaydi: a) a’lo darajadagi so‘zlar guruhi; b) avsat (o‘rta) darajadagi so‘zlar guruhi; d) adno (quyi) darajadagi so‘zlar guruhi. O‘z navbatida Navoiy a’lo darajadagi so‘zlarni ham uch guruhga bo‘ladi va birinchi guruhga “Qur’oni Karim” so‘zlarini kiritib, ikkinchi guruhga Muhammad (s.a.v.) so‘zlarini, uchinchi guruhga esa Hazrat Ali so‘zlarini kiritadi. So‘z darajasining o‘rta qismiga ijod ahlining so‘zlarini kiritadi va uning quyi qismiga xalq, ya’ni avom so‘zlarini kiritib, uni ham ma’noli va ma’nosiz guruhlariga tasniflaydi.
3. Navoiy asar yozilishi sabablariga to‘xtalar ekan, Hazrat Ali hikmatlarini duru javohirlarga va eng go‘zal gullarga tashbih qiladi hamda muqaddimada ikkita sababni batafsil bayon qiladi. Asar yozilishi sabablaridan birinchisi hikmatlarning forsigo‘y shoirlar tomonidan nazmga solib kelingani bo‘lib, Navoiy bu an’anani turkiychada davom ettiradi hamda turkiy til imkoniyatlarining ochilishiga yana bir zamin yaratadi (“Xamsa” kabi). Asar yozilishining yana bir sababi, Hazrat Ali qabrining Balxdan topilgani bo‘lib, bu haqda Ma’rifat Rajabova batafsil ma’lumot beradi.
4. Asarning yozilishiga eng asosiy sabablardan biri bu Husayn Boyqaroning “Risola” asarini bitgani bo‘lib, muqaddimada Navoiy ayni shu hodisani bir muncha vaqt amalga oshirolmay kelayotgan orzusi, ya’ni, asarni yozishga

qo'l urganiga eng muhim turtki bo'lganini ta'kidlaydi.

5. "Nazm ul-javohir" asari kompozitsion qurilishi jihatidan o'ziga xoslikka ega bo'lib, u muqaddima va asosiy qismdan tashkil topgan, O'z navbatida muqaddima ham, hamd, nat, xulafoyi roshidin tavsifi, so'z qudrati ta'rifi va asarning yozilish sabablari kabi ichki bo'limchalardan iborat. Muqaddimada keltirilgan har bir fikr oyat va hadislar asosida dalillanadi va ularning ta'sirchanligini, hamda falsafiy-badiiy mohiyatini oshirish va umumlashma ahamiyatini ta'minlash maqsadida to'rt misrasi ham qofiyadosh bo'lgan taronayi ruboiylar keltiriladi.

6. Asar asosiy qismi kompozitsion jihatdan o'ziga xoslikka ega bo'lib, avval Hazrat Alining arab tilidagi hikmatlari keltiriladi, so'ngra ularning talqini bo'lgan taronayi ruboiylar nazm qilinadiki, aynan tarjima emas talqin deyilishida ham ma'no bo'lib, bu hikmatlarning Hazrat Navoiy tomonidan mazmunan hamda g'oyaviy badiiy jihatdan kengaytirilishi bilan izohlanadi.

7. Hazrat Ali hikmatlarining aynan taronayi ruboiylarda talqin qilinishi ham bir qator ramziy ma'nolarni kasb etadi. Asar muqaddimasini o'rganish jarayonida muallif e'tirof etgan ana o'sha ramziy ma'nolar quyidagilarni tashkil etadi:

- a) Dunyoning to'rt unsuridan tashkil topganligi;
- b) Islom olamida payg'ambarimizdan so'ng to'rt xalifaning mavjudligi;
- d) Shoh taxtining to'rt poyasi uni ko'tarib turishi;
- e) Falakning to'rtinchi qavati quyoshning maskani ekanligi;
- f) Ka'batullohning to'rt devori mavjudligi.

8. "Nazm ul-javohir" asari asosiy qismida berilgan ruboiylar fikrning ifodalanishi, mazmunning kengayish miqyosi, g'oyaning aniq va ravshanligi, Hazrat Ali hikmatlarining joylashish o'rni kabi bir qator xususiyatlarga ko'ra kompozitsion rang-baranglikka ega. Shunday bo'lsa-da, hikmatlarning aynan joylashishi va mazmunning saqlanishiga ko'ra hamda ana o'sha hikmatlar

zamidida lirik pafosning yaratilishi munosabati bilan ularni quyidagicha guruhladik:

a) Erkin tarjima;

b) Hikmatlarning ayni bir misraga joylashtirilgan holdagi talqini;

d) Hikmatlarning ikki misraga joylashtirilishi (xususan uchinchi va to'rtinchi) va ular ko'pincha birinchi va ikkinchi misradagi fikrlarning (yoki fikrning dalili sifatida keltirilishi).

9. "Nasr ul-laoliy" hikmatlari mavzularining rang-barangligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va u ikki katta guruhga: diniy va ijtimoiy mavzularga bo'linadi. "Nazm ul-javohir" ruboiylari esa ularni mavzu va g'oya jihatidan mazmunan keng ko'lamda talqin qiladi.

10. "Nasr ul-laoliy" hikmatlarida va "Nazm ul-javohir" ruboiylarida noaxloqiy illatlar qoralanadi. Ular yomonlik va hasadgo'ylik, zolimlik va zulm, nafs va hirs, xudbinlik va kibr hamda baxillik kabilar bo'lib, ushbu mavzular bo'yicha berilgan hikmatlar insonni to'g'ri yo'ldan adashmaslikka, qo'li ochiq ya'ni saxiy bo'lishga o'zgalarga hasad, zulm va yomonlik qilmaslikka nafs, hirs va kibrga berilmaslikka targ'ib etadi.

11. Hazrat Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari turkiy ruboiychilikning shakillanishida muhim manba vazifasini o'tagan bo'lib, har to'rtala misraning qofiyadosh bo'lishi bilan, qolaversa ularning ko'pchiligini bir va ikki so'zli radiflar tashkil qilishi bilan, vazn jihatidan rang-barangligi hamda ularda bir qancha she'riy san'atlarning qo'llanilishi bilan diqqatga sazovordir.

12. "Nazm ul-javohir" asari muqaddimasida va uning asosiy qismida bir, ikki, uch va hatto to'rt vaznda bitilgan ruboiylarni uchratamiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ularning ko'pchiligini hazaj baxrining axrab shahobchasi vaznlarida bitilgan ruboiylar tashkil qiladi (ko'proq bir vaznli ruboiylar nazarda tutilmoqda).

13. "Nazm ul-javohir" asari muqaddimasidagi hamda uning asosiy qismidagi ruboiylarning badiiy mukammallik jihatidan muhim xususiyati shundaki, ularda tashbih, tanosub, talmeh, tazod, mukarrar, takrir, muvozana, istiora, ishtiyoq kabi bir qator she'riy san'atlar qo'llangan bo'lib, ular asar badiiy nafosatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Siyosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2009.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Shrq, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka chiqish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.

### **Matn va manbalar**

4. Навоий Алишер. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. Тошкент: Фан, 1999.
5. Навоий Алишер. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 15 жилдлик. Тошкент: F.фулом, 1968.
6. Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror (nasriy bayoni bilan). – Toshkent: G'.G'ulom, 2006.
7. Navoiy Alisher. Mezon ul-avzon. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 2000.
8. Navoiy Alisher. Muhokamat ul-lug'atayn. MAT 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 2000.

### **Ilmiy adabiyotlar**

9. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
10. Болтабоев Ҳ. Мумтоз адабиёт манбалари луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.
11. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
12. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993
13. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
14. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

15. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Ўзбекистон ССР: «Фан» нашриёти, 1983.
16. Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. Ҳадис ва ҳаёт. – Тошкент: Шарқ, 2011.
17. Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. – Тошкент: Шарқ, 2009.
18. Қуронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
19. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007.
20. Ражабова М. “Назм ул-жавоҳир” манбалари ва бадиияти: Филол. Фан. Номз. Дис. ...автореф. – Тошкент, 2006. 25 б.
21. Рашидова М. “Назм ул-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти: Филол. Фан. Номз. Дис. ...автореф. – Тошкент, 1990. 74 б.
22. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
23. Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1992.
24. Ғаниева С. “Назм ул-жавоҳир” муқаддимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1991. 1-сон.
25. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври) – Тошкент: akademnashr, 2013.